2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 102 (1428), 2025-yil 21-may, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON – VENGRIYA: IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA OLIB CHIQQAN SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Budapeshtga rasmiy tashrifi 20-may kuni Vengriyaning yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvdan boshlandi.

Vengriya tomonidan “OTP Bank”, “BDPST Group”, “4iG”, “Indotek”, “MVM”, “Duna Group”, “MOL Group”, “H2O Consortium”, “Inpark”, “Wizz Air” va boshqa ko‘plab kompaniyalarning top-menejerlari va ta’sischilari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida rasmiy tashrif Vengriya ishbilarmonlari bilan uchrashuvdan boshlanayotgani ramziy ma’noga ega ekanini ta’kidladi.

Vengriyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari jadal o‘sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Masalan, “OTP Bank” O‘zbekistonning yirik banklaridan birini sotib olib, mamlakatimiz moliya bozorida barqaror o‘rin egalladi.

Kompaniyaning avtokreditlashni rivojlantirish uchun qo‘shma kompaniya tashkil etish, biznesni moliyalashtirish dasturini yo‘lga qo‘yish, yirik parrandachilik klasterini qurish bo‘yicha yangi rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va ilg‘or texnologiyalar transferini rag‘batlantirish maqsadida Toshkent viloyatida Yevropa kompaniyalari uchun maxsus sanoat zonasi tashkil etilmoqda. Ushbu hududni boshqarish Vengriyaning “Inpark” operatoriga beriladi.

Iqtisodiy sheriklikni kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti qator ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tdi. Qo‘shma loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va tayyor mahsulotlarni uchinchi mamlakatlarning istiqbolli bozorlariga eksport qilishni qo‘llab-quvvatlash shular jumlasidan.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, xususan, yuk tashishni ko‘paytirish va ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari Vengriya kompaniyalarining qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qiziqishini yuksak baholadi. O‘z navbatida, biznes vakillari hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha taklif va rejalarini bildirdi.

Uchrashuvda transport va yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlari va kommunal tarmoqlarni barpo etish, qurilish materiallari, tayyor to‘qimachilik, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi Toshkent viloyatidagi sanoat parkida Vengriya kompaniyalari loyihalarini ilgari surish va qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Budapesht shahriga rasmiy tashrif doirasida Vengriya Milliy majlisi spikeri Laslo Kyover bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Vengriya strategik sheriklik munosabatlarini, shu jumladan, parlamentlararo yo‘nalishda yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat parlamentlari delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari va uchrashuvlari faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasida Milliy majlis spikeri o‘rinbosari Yanosh Latorsai ishtirok etdi. Yil yakuniga qadar Vengriya parlamenti spikeri o‘rinbosari va Iqtisodiyot qo‘mitasi rahbarining O‘zbekistonga, mamlakatimiz parlament delegatsiyasining Budapesht shahriga tashrifi amalga oshiriladi.

Imzolangan bitimlarni amalga oshirishga ko‘maklashish, do‘stlik guruhlari ishini faollashtirish, eng avvalo, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy himoya, soliq va raqamlashtirish sohalarida qonun ijodkorligi bo‘yicha tajriba almashish uchun tegishli yo‘nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari bunday uchrashuvlarni muntazam o‘tkazib borishni taklif etdi.

— Biz mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi mustahkam aloqalarni rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratamiz, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Tadbir yakunida davlatimiz rahbari huzurida ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha bitimlar almashish marosimi bo‘ldi.

Rasmiy tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “OTP Bank Group” direktorlar kengashi raisi Shandor Chani bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Bankning mamlakatimiz bank-moliya bozoridagi faoliyati 2023-yildan buyon jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari avtokreditlashni rivojlantirish va biznes loyihalarini moliyalashtirishga doir qo‘shma dasturlarni olqishladi.

Parrandachilik klasterini tashkil etish bo‘yicha yirik loyihani tez fursatda amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

million yevroga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Shu maqsadda laboratoriyalar Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tkaziladi, tovarlarni oldindan sertifikatlash dasturi va eksport qiluvchi kompaniyalarga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shma platforma ishga tushiriladi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda qo‘shma investitsiya loyihalari portfeli 500 million dollarni tashkil etadi. Bu galgi tashrif uchun yana 1,5 milliard yevrolik yangi loyihalar tayyorlangan.

Vengriyaning “OTP” banki O‘zbekiston moliya bozoriga chiqqani Vengriya va Yevropa biznesi uchun kuchli rag‘bat bo‘lgani ta’kidlandi. Bank bilan moliyalashtirish vositalarini kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Avtokreditlashni rivojlantirish uchun qo‘shma kompaniya tashkil etish va biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishga tushirish shular jumlasidan. Sirdaryo viloyatida parrandachilik klasterini tashkil etish ham faol bosqichda.

Ertalab ishbilarmon doiralar vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, avtomobil yo‘llari va logistika markazlarini qurish, kommunal tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyoviy tovarlar, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar, baliqchilik kabi sohalarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Bunday ishlab chiqarishlarni O‘zbekistonda joylashtirish uchun Vengriyaning “Inpark” operatori boshqaruvida Yevropa kompaniyalari uchun maxsus sanoat zonasi tashkil etilayotgani ta’kidlandi.

Umuman, joriy yil iyul oyida Budapesht shahrida bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishida Investitsiyaviy sheriklik dasturini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Shuningdek, O‘zbekiston — Vengriya Ishbilarmonlar kengashi faoliyatini qayta tiklash va yaqin fursatda uning navbatdagi yig‘ilishini biznes vakillarining keng ishtirokida o‘tkazish taklif qilindi.

Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Kengaytirilgan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, yetakchilar huzurida qabul qilingan qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar, jumladan, Ekstraditsiya to‘g‘risidagi shartnoma, Iqlim o‘zgarishi sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, tabiiy ofatlarni boshqarish, ilm-fan va innovatsiyalar, tinch atom sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi idoralararo kelishuvlar almashildi.

O‘tgan yil oktyabr oyida Qo‘qon shahrida o‘tgan birinchi Hududlar forumining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi. Hududlararo aloqalarni rag‘batlantirish maqsadida Vengriyada ikkinchi forumga puxta tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Ishbilarmonlik, turizm va madaniy almashinuvlarni faollashtirish maqsadida ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Madaniy-gumanitar sohadagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘tgan yilning oktabr oyida Lakitelek shahrida buyuk shoir Alisher Navoiy byusti ochildi. Joriy yilning yanvar oyida Budapeshtda O‘zbek kinosi kunlari o‘tkazildi.

Kelgusi yilni O‘zbekiston va Vengriya madaniyati yili deb e’lon qilish taklifi bildirildi. Vengriya davlat opera teatri sahnasida “Lazgi” baletini sahnalashtirish va Budapeshtdagi Etnografiya muzeyida o‘zbek madaniyati ko‘rgazmasini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Ta’lim almashinuvi bo‘yicha “Stipendium Hungaricum” dasturi doirasidagi hamkorlik davom ettiriladi. Shuningdek, ikki mamlakatda tan olinadigan diplomlar berish tizimini joriy etish va mamlakatimizda Vengriya oliy ta’lim muassasalarining filiallarini tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Shu ma’noda, joriy yilda Toshkent shahrida O‘zbekiston va Vengriya rektorlarining uchinchi forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi, odam savdosi va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta’kidlandi.

Erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida mutasaddi vazirliklarga qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash topshirildi.


Uchrashuv yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir Viktor Orbanni javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishni taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

O‘zA

“PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV RAHNAMOLIGIDA O‘ZBEKISTON TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING DINAMIK YETAKCHISI SIFATIDA NAMOYON BO‘LDI”

Vengriyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Budapesht shahriga tashrifi arafasida O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar va mamlakatimizning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtirokini keng yoritmoqda.



Jumladan, Vengriyaning “Hungarian Conservative” axborot-tahliliy nashrida “O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi yetakchiligi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarashlari” sarlavhali maqola e’lon qilindi. Nashrda O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya va turkiy tilli davlatlar o‘rtasida madaniy birlikni mustahkamlash uchun Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvidan foydalangan holda asosiy ishtirokchiga aylangani qayd etilgan. “Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekistonda TDT kun tartibini belgilab beruvchi va uning xalqaro maydondagi ta’sirini kuchaytiruvchi qator chuqur islohotlar boshlandi. Bu sa’y-harakatlar O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va turkiy davlatlar o‘rtasida umumiy farovonlik tarafdori ekanini ta’kidlaydi”, deb yozilgan materialda.

Davomi 2-betda

AHOLINING TAKLIF VA ISTAKLARI INOBATGA OLINDI

PREZIDENT TOPSHIRIG‘IGA ASOSAN QABUL QILINGAN HUJJATGA MUVOFIQ, AVTOMOBIL YO‘LLARIDA HARAKATLANISHDA QATOR TARTIBLAR JORIY ETILMOQDA

Orzu-havas, xohish-istaklarning ko‘p bo‘lishi inson tabiatiga xos xususiyat. Zero, har birimizda oilamiz, yaqinlarimiz, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan muassasamiz hamda davlat va jamiyatdan kutadigan xohish-istaklar mavjud. Bu tabiiy holat.



Xalq istagi-chi? O‘z nomidan ham bu mutlaqo ko‘pchilikning muayyan mavzu yoki masalaga doir xohish va istaklari majmuyini anglatadi. Masalan, hammamiz yurtimiz doim tinch bo‘lishini, xalqimiz farovon yashashini xohlaymiz.

Lekin jamiyatda tabiiy rivojlanish jarayoni, normativ-huquqiy hujjatlardagi yangilanishlar, ilm-fan va texnika taraqqiyoti, ortib borayotgan ehtiyojlarimiz hisobiga ayrim muammoli masalalar paydo bo‘ladiki, bu juda ko‘pchilikka daxldor bo‘lgani nuqtayi nazaridan ham xalq istagi darajasiga ko‘tariladi. Aytaylik, mamlakatimizda uzoq yillar mobaynida aholi talabini qondiradigan darajada turar joylar qurilmagani va uy-joy qurish uchun yer ajratilmagani oqibatida, bir tomondan, noqonuniy qurilishlar ko‘paygan bo‘lsa, boshqa tomondan, uy-joyga yuqori talab saqlanib keldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keng ko‘lamli uy-joy qurilishi boshlangani, maxsus farmon qabul qilinib, aholining noqonuniy turar joylarini hujjatlashtirish ishlari olib borilayotgani esa xalqimiz istagan, boshqacha aytganda, millionlab yurtdoshlarimiz xohlagan ish bo‘ldi. Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili islohotlarning o‘zagi ekani amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi.

Shu ma’noda, Vazirlar Mahkamasining shu yil 15-mayda qabul qilingan “Transport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ko‘p ming sonli yurtdoshlarimizning ayni ko‘nglidagi, ular istagan voqea bo‘ldi.

Davomi 3-betda

“PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV RAHNAMOLIGIDA O‘ZBEKISTON TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING DINAMIK YETAKCHISI SIFATIDA NAMOYON BO‘LDI”

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, maqolada O‘zbekiston 2022-yilda TDTga raislik qilganidan beri tashkilot maqsadlarini ilgari surishda markaziy rol o‘ynagani urg‘ulangan.

“Hungarian Conservative” portalining yozishicha, 2022-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan TDT sammiti muhim voqea bo‘ldi, unda O‘zbekiston Turkiyadan raislikni qabul qilib oldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy integratsiya, infratuzilmani rivojlantirish va madaniy almashinuvga e’tibor qaratgan holda hamkorlikni mustahkamlash strategiyasini belgilab berdi.

“Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotining dinamik yetakchisi sifatida namoyon bo‘ldi. Iqtisodiy aloqalar, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishga qaratilgan tashabbuslar orqali O‘zbekiston nafaqat turkiy davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlamoqda, balki jahon miqyosida ham munosib o‘rin egallamoqda. Shavkat Mirziyoyev TDTni oldinga siljitishda davom etar ekan, O‘zbekistonning ta’siri kuchayib, turkiy dunyoda farovonlik va birlikning yangi davrini boshlab berdi”, deb yozilgan maqola xulosasida.

Vengriyadagi eng qadimgi va mashhur kundalik bosma nashrlardan biri “Magyar Nemzet” gazetasi “Diplomatik yuksalish: Turk dunyosi Budapeshtga e’tibor qaratmoqda” sarlavhali maqolani o‘z o‘quvchilari e’tiboriga taqdim qildi. Maqolada shu yil 20-21-may kunlari Budapeshtda Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti bo‘lib o‘tishi xabar qilingan. “Varkeret bozori majmuasida bo‘lib o‘tadigan sammitda Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston yetakchilari, shuningdek, TDT bosh kotibi ishtirok etadi, — deb ta’kidlangan materialda. — Ekspertlarning fikricha, TDT Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning muhim ishtirokchisiga aylanib bormoqda”.

Mazkur gazetada e’lon qilingan navbatdagi maqola Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rniga bag‘ishlandi. “Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo va Yevroosiyodagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning tobora muhim ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Mintaqaning rivojlanishi global nuqtayi nazardan e’tiborga loyiq bo‘lib, o‘zaro hamkorlik va mushtarak madaniy ildizlar turkiy davlatlar bilan “Sharqqa ochilish” siyosati doirasidagi iqtisodiy aloqalar uchun ajoyib zamin yaratadi”, deya Vengriya tashqi siyosat instituti katta ilmiy xodimi, professor Laslo Vasha so‘zlaridan iqtibos keltirilgan nashrda.

Shuningdek, Vengriyaning “Eurasia” tahlil markazi rasmiy saytida “Vengriya va Turkiy davlatlar tashkilotining buguni va kelajagi” sarlavhali tahliliy maqola joylashtirildi. Unda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan TDTning Budapeshtdagi norasmiy sammitida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ishtirok etishi xabar qilingan.

Maqolada, shuningdek, Vengriya va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar so‘nggi yetti yilda yangi bosqichga ko‘tarilgani ta’kidlangan. Vengriyaning yangi tashqi siyosatining muhim natijalaridan biri Toshkentda Vengriya elchixonasining ochilishi bo‘ldi. Shu bilan birga, ikki davlat yetakchilarining tez-tez o‘tkazilayotgan uchrashuvlari Vengriya — O‘zbekiston iqtisodiy va diplomatik aloqalari jadal rivojlanib borayotganining yorqin namunasidir. “2021-yil mart oyida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga bordi va u yerda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Toshkent uchrashuvi chog‘ida Vengriya va O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik sheriklik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya va 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi”, deya qayd etgan portal.

Ushbu mamlakatning mashhur “Hello Magyar” onlayn nashrida esa “O‘zbekiston va Vengriya: turizm hamkorligining o‘sish nuqtalari” sarlavhali maqola e’lon qilindi. Unda O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlik tobora jadal va sermahsul bo‘lib borayotgani qayd etilgan.

“So‘nggi yillarda ham biznes aloqalarini, ham madaniy almashinuvni qamrab oluvchi strategik sheriklik uchun mustahkam poydevor yaratildi. Bugun ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatlarimiz muloqotning yangi bosqichiga ko‘tarildi, bunda turizm muhim, integratsiyaviy rol o‘ynaydi”, deyilgan manbada.

Ta’kidlanishicha, Vengriya fuqarolarining O‘zbekistonga qiziqishi ortib bormoqda. Ularni O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosni zamonaviy infratuzilma bilan uyg‘unlashtirgan noyob sayyohlik yo‘nalishlari o‘ziga faol jalb qilmoqda. “Boshqa tomondan, Vengriya O‘zbekiston turizmi uchun barqaror va ko‘p qirrali bozor hisoblanadi. O‘zbekiston fuqarolari Vengriyaga madaniy, sog‘lomlashtirish va ishbilarmonlik turizmi mamlakati sifatida qiziqish bildirmoqda. Budapeshtning termal kurortlari, gastronomik yo‘nalishlari va me’moriy merosi o‘zbek sayyohida katta qiziqish uyg‘otmoqda”, deb yozgan muallif.

“Dunyo” AA

Budapesht

Mahalla raislari saylovi

XALQ ISHONCHI – ULKAN MAS’ULIYAT

Shu kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida muhim siyosiy tadbir – mahalla raislari saylovi bo‘lib o‘tmoqda. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Navbahor mahallasida bo‘lib o‘tgan ana shunday tadbirda biz ham ishtirok etib, jarayonni kuzatish imkoniga ega bo‘ldik.

Saylovni o‘tkazish uchun Milliy gvardiyaning mahalla hududida joylashgan akademik litseyi binosi tanlangan. Ta’lim maskanining anjumanlar zalida tadbirni yuqori saviyada tashkil etishga munosib taraddud ko‘rilgan. Ovoz berish jarayonini tashkil etish uchun maxsus quti tayyorlab qo‘yilgan. Saylovda ovoz berish uchun mahalla ahlining qariyb 150 vakilidan barchasi shu yerda jamuljam bo‘ldi.

Bu galgi saylovda Navbahor mahallasi raisligi uchun uch nomzod bellashdi. Ulardan biri tadbirkor, ikkinchisi mahallada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar faoli, uchinchi nomzod ham mahalla tizimida ko‘p yillardan buyon ishlab kelayotgan mutaxassis. Shu bois, vakillar har bir nomzodning saylovoldi dasturini yana bir karra sinchiklab o‘rganib, ularning orasidan raislikka eng munosibini tanlashga katta mas’uliyat bilan yondashdi.

Zero, qariyb besh ming aholi yashaydigan mahallada o‘zaro mehr-oqibat muhitini ta’minlash, aholi muammolariga o‘z vaqtida yechim topishda tajribali, obro‘li, jonkuyar va fidoyi oqsoqolning o‘rni katta. Yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tgan saylovda vakillar ana shunday talablarga javob bera oladigan munosib nomzodni mahalla raisi etib sayladi.

Ayni vaqtda yurtimizning barcha mahallalarida saylov ana shu tarzda katta taraddud va uyushqoqlik bilan o‘tkazilyapti. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi ma’lumotiga ko‘ra, joriy yil 17-may holatiga 208 ta tuman (shahar)dagi 4637 ta mahallada saylov bo‘lib o‘tdi. Saylovda mahallalarning 1 million 49,5 mingga yaqin vakili ishtirok etdi. 19-may kuni 374 ta mahallada bo‘lib o‘tgan saylov tadbirlarida ham yuz mingdan ko‘proq vakil faol qatnashib, munosib nomzodlarga ovoz berish orqali nafaqat mahallasi obodligi, balki yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar davomiy bo‘lishiga o‘z ulushini qo‘shdi.

Mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan saylovda aholi vakillari, keng jamoatchilik faol ishtirok etmoqda. Xalqimiz bu jarayondagi tadbirlarda tashabbuskorligi va hamjihatligini namoyish etish barobarida mahalla tizimidagi islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini namoyon etmoqda.

Albatta, bu bejiz emas. Zero, Prezidentimiz tomonidan joriy etilgan noyob tizim — “mahalla yettiligi” faoliyati o‘tgan qisqa davrda o‘zini to‘liq oqladi. Mahalla xodimlari xonadonlarga kirib, oilalarning har bir vakili bilan alohida ishlagani bois, yurtimizda kambag‘allik ko‘rsatkichi keskin kamaydi. Mahallaga vakolat, budjet berilgani tufayli aksariyat mablag‘ talab qilinadigan masalalar o‘z yechimini topmoqda. Natijada aholini qiynayotgan ko‘pgina muammolar mahallaning o‘zida hal bo‘lmoqda. Bularning barchasi odamlarning mahallaga ishonchini oshirdi. Bu esa aholida mahalla taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirmoqda.

O‘z navbatida, xalqimizning bu boradagi ishonch va e’tiboriga javoban saylovda qatnashgan nomzodlar yurtimizdagi islohotlarni mahallagacha tushirib, uni amalga oshirish borasida sobitqadam ekanini o‘z dasturlari orqali namoyon etmoqda.

Saylov jarayonlari ochiqlik, oshkoralik va qonunchilik tamoyillariga rioya etgan holda o‘tkazilib, ovozlarni aniqlash saylovchilar ko‘z o‘ngida saylov qutisini ochib byulletenlarni sanash, eng ko‘p ovoz olgan nomzodlarni e’lon qilish orqali amalga oshirilyapti. Ana shu tartib asosida saylangan mahalla raislari orasida turli soha mutaxassislari bor. Ularning yosh toifasi ham turlicha.

Xususan, bu galgi saylovda ko‘pni ko‘rgan, boy hayotiy tajribaga ega yoshi ulug‘ insonlar qatorida navqiron avlod vakillariga ham katta ishonch bildirilib, mahalla raisi etib saylanyapti. Saylangan raislar orasida ayollarning ulushi ham salmoqli.

“Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, saylov may-iyul oylarida respublika bo‘ylab o‘tkazilishi belgilangan. Saylovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq masalalarda yuzaga kelgan qonun buzilishi holatlari bo‘yicha fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri komissiyalari vakolatli organ hisoblanadi.

Saylov jarayonlari davrida qonun buzilishi yoki boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda fuqarolarning murojaatini tezkor qabul qilish va ko‘rib chiqishga mas’ul organlarga tegishli tartibda yo‘naltirish va murojaatlar amaldagi qonunchilikka asosan ko‘rib chiqilishini ta’minlash zarur. Shu maqsadda O‘zbekiston mahallalari uyushmasining 1276 qisqa raqamli “Call-markazi”da fuqarolar yig‘ini raisi saylovi bilan bog‘liq muammo va murojaatlar yuzasidan qo‘ng‘iroqlar qabul qilinmoqda va tegishli tartibda hududiy komissiyalarga yo‘naltirilyapti.

Bir so‘z bilan aytganda, saylov barcha hududlarda uyushqoqlik bilan tashkil etilyapti. Ushbu muhim siyosiy tadbirni o‘tkazish uchun maktab, litsey, kollej, texnikum, oliy ta’lim muassasalari, musiqa va san’at maktablari, korxona va tashkilotlar, mahalla binolari, guzarlar hamda boshqa zamonaviy inshootlar tanlangani saylovning qonunchilik tamoyillari va milliy qadriyatlar asosida o‘tishini ta’minlashda katta qulaylik yaratmoqda.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

EKOLOGIK MADANIYAT

UNI TURMUSH TUTUMIMIZGA AYLANTIRISH BUGUNGI KUN TALABI



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Konstitutsiyamizda har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi mustahkamlangan. Aholining ushbu konstitutsion huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida dolzarb ekologik muammolar, xususan, Orolning qurigan tubini yashillashtirish, hududlarni yanada ko‘kalamzorlashtirish, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, chiqindilar bilan ifloslanishni kamaytirish singari qator yo‘nalishlarda salmoqli ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda birgina Orolbo‘yining 2 million gektardan ortiq cho‘l hududlarida qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar ekilgani ham fikrimizning amaliy ifodasidir.



Botirali SHODIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Biroq ekologik muammolarga qarshi kurash mavsumiy jarayon emas, aholi soni va mos ravishda ehtiyojlarimiz ortib borishi, sanoat taraqqiyoti, tabiiy resurslar kamayishi kabi holatlar iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq yangidan yangi muammolarni paydo qilmoqda. Xo‘sh, unda nima qilmoq zarur?

Avvalo, davlatimiz rahbari shu yil 4-aprel kuni bo‘lib o‘tgan Samarqand xalqaro iqlim forumida alohida ta’kidlaganidek, “Bizning vazifamiz — kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish”.

Shu ma’noda, bugungi kunda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishda huquqiy asoslar, moliyaviy manbalar bo‘lsa-da, bu boradagi ishlarni ta’lim tizimida, oila yoki korxona va tashkilotlarda, umuman, barcha soha va tarmoqlarda tizimli olib borishda qator kamchilik va muammolar ko‘zga tashlanayotgan edi. Prezidentimizning shu yil 15-mayda e’lon qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori huquqiy asoslarni mustahkamlash borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, yurtdoshlarimizning ekologik madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon ijrosini ta’minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ushbu yo‘nalishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi sa’y-harakatlari hamda O‘zbekiston Ekologik partiyasining hamyurtlarimiz ekologik bilimini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan ushbu qarorning dolzarbligi va muhimligini ortiqcha ta’riflash shart emas. Zero, poytaxtimiz va ko‘pgina boshqa hududlarda dam olish kunlari kuzatilgan va hali asorati arib ulgurmagan chang bo‘ronlari mazkur hujjatning naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatmoqda.

Hujjatda belgilangan vazifalardan kelib chiqib aytish mumkinki, birlamchi vazifamiz — ekologik ta’limni erta yoshdan boshlab shakllantirish.

Konsepsiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, kollej va texnikumlar hamda oliy ta’lim tizimlarida ekologik bilimlarni chuqurlashtirish, bolalar va yoshlar ongiga tabiatni asrash g‘oyasini singdirish masalalariga alohida urg‘u berilgan. Bu, ayniqsa, “Yosh ekologlar” harakati doirasida olib borayotgan ishlarimizning ko‘lamini yanada kengaytirishga katta turtki beradi.

Qarorga muvofiq, bu boradagi ishlar natijasida 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida ekologik madaniyatni shakllantirish, 4,2 million maktab o‘quvchisi, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tizimi tashkilotlarining 400 ming o‘quvchisi hamda 1,9 million talabaning ekologik ta’lim-tarbiyasi mustahkamlanishi, ekologik madaniyati yuksalishiga erishish maqsad qilinmoqda.

Shuningdek, davlat organlari, korxona va muassasalari xodimlarining asosiy qismi, ya’ni 90 foizida ekologik madaniyat yuksalishiga erishish belgilangan. Buning uchun ularning ekologik bilimini oshirishga qaratilgan bepul o‘quv kurslari tashkil etiladi. Davlat organlari va tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ekologik madaniyatni yuksaltirish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan tartibda har yili to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan davlat ijtimoiy buyurtmasi beriladi.

Ikkinchi muhim jihat — jamoatchilik nazorati va oshkoralik. Qarorda ekologik axborotlarning jamoatchilikka ochiq taqdim etilishi, daraxt kesilishi, chiqindilarni boshqarish va boshqa muhim ma’lumotlar ustidan fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki nazarda tutilgan.



Jumladan, O‘zbekiston Atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to‘g‘risidagi konvensiyaga (Orxus konvensiyasi, Orxus shahri, Daniya, 1998-yil 25-iyun) qo‘shilgani munosabati bilan shunday tartib o‘rnatilyaptiki, unga muvofiq, shu yil 1-dekabrdan boshlab Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi ma’lumotlari bazalarining jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minlaydi. Ularda quyidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladi:

— har yili “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekiladigan daraxt va ko‘chatlar haqida (manzili, parvarishlash uchun mas’ul shaxslar, ko‘chat turi va b.);

— davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni kesish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish maqsadida taqdim etilgan arizalar (murojaatchilar, daraxtlar soni, turi va manzili) va daraxtni kesish bo‘yicha o‘tkaziladigan jamoatchilik eshituvi haqida (sanasi, vaqti, manzili va natijalari);

— suv havzalarida noruda materiallarni qazib olish bo‘yicha joriy qilingan moratoriy tartibini buzgan shaxslar haqida;

— mo‘ljallanayotgan va (yoki) rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyatining hamda boshqa faoliyatning atrof-muhitga ehtimol tutilgan ta’siri masalalarini aholi va jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan jamoatchilik eshituvlari natijalari haqida;

— strategik ekologik baholash obyektlari, xususan, shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari, davlat dasturlari, konsepsiyalari, ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalari loyihalari yuzasidan jamoatchilik eshituvi natijalari haqida;

— ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida o‘tkazilgan reydlar, tekshiruvlar, monitoringlar natijasida aniqlangan qonun buzilishi holatlari va ularni bartaraf etish yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida;

— hududlarga qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish uchun biriktirilgan sanitar-tozalash korxonalari (korxona nomi, rahbari va uning o‘rinbosari familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning telefon raqamlari, dispetcherlik xizmati va murojaatlarni qabul qilish xizmati ma’lumotlari, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish reja-grafiklari) haqida;

— chiqindilarni qabul qilish, saralash, qayta ishlash va yoqish orqali muqobil energiya ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar haqida (korxona nomi, faoliyat turi, telefon raqamlari, ikkilamchi xomashyo, saralangan chiqindilarni qabul qilish maskanlari manzillari).

Qarorning yana bir muhim tomoni — ko‘ngillilar harakatiga doir normalar belgilandi. Jumladan, qarorda “O‘zbekiston ekovolontyorlari” harakatini yaratish va keng ommaga yoyish masalasi alohida qayd etilgan. Bu harakat “Yashil avlod” ko‘ngillilar harakati bilan uyg‘unlashadi.

Qarorga muvofiq, shu yil 1-avgustdan ekologik nazorat sohasida yangi tartib amaliyotga joriy etiladi.

Endilikda Davlat ekologik nazorati inspeksiyasi inspektorlari tomonidan qonunbuzarlik holatlari aniqlansa, ular tekshiruv boshlangan paytdan boshlab 24 soat ichida “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilib, tadbirkorlik subyektlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga xabar bergan holda nazorat tadbirini amalga oshiradi.

Bunday holatlar qatoriga daraxt va o‘simliklarni qasddan yo‘q qilish, qurilish paytida havoga chang va zararli moddalar chiqishiga yo‘l qo‘yish hamda qonun bilan taqiqlangan holda yovvoyi hayvonlarni sun’iy muhitda saqlash kiradi. Jumladan, 500 kvadrat metrdan katta qurilish maydonlarida havoning ifloslanishi bilan bog‘liq talablarni buzish ham nazoratga olinadi.

Shu bilan birga, ushbu tartib tadbirkorlik faoliyatini cheklash emas, balki uning ekologik jihatdan javobgarlik bilan olib borilishiga xizmat qiladi. Qonunga zid harakatlar aniqlangan taqdirda davlat nazorati mutaxassislari tezkor tarzda hujjatlashtirish va tegishli choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘ladi.

Yangi tartib orqali davlat ekologik nazorati tizimi samaraliroq va ochiqroq mexanizmlarga asoslangan holda faoliyat yuritadi, bu esa atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, qaror ijrosi faqat hukumat yoki mutasaddi idoralar zimmasiga yuklanmagan. Bu umumxalq harakati, butun jamiyat, mamlakatimiz aholisining ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatdir. Shu ma’noda, har birimiz kelajagimiz uchun, bolalarimiz uchun, yashil va sog‘lom hayot uchun ekologik madaniyatni umumxalq qadriyatiga aylantirishga kirishishimiz, shu yo‘l bilan kelajak avlodlarga barqaror, xavfsiz va farovon hayot qurishni bugundan boshlashimiz zarurligini davrning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Inson qadri uchun
yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz



AHOLINING TAKLIF VA ISTAKLARI INOBATGA OLINDI

PREZIDENT TOPSHIRIG‘IGA ASOSAN QABUL QILINGAN HUJJATGA MUVOFIQ, AVTOMOBIL YO‘LLARIDA HARAKATLANISHDA QATOR TARTIBLAR JORIY ETILMOQDA







Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Xo‘sh, ushbu qaror qaysi jihatlari bilan ko‘pchilikning quvonchi, olqishi, bugungi yashayotgan kunidan rozi bo‘lishiga zamin yaratmoqda? Bunga quyida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Har kuni kimdir ishga, o‘qishga va yana kimdir o‘z yumushi bilan boshqa manzilga borish uchun yo‘lga chiqadi. Lekin yo‘llardagi tirbandlik, sun’iy cheklovlar sabab ko‘pchilikning kuni ko‘ngilxiralik bilan boshlanadi. Tabiiyki, ertalab ishga kelayotgan odam shoshadi. Haydovchiga tezroq yurishni, kechikayotganimizni aytamiz. Haydovchi esa, o‘z navbatida, sizga chorrahalarda turgan foto-video qurilmalarni, tirbandlik sabab yo‘l chiziqlarini bosib o‘tib ketolmasligini aytadi.

— Ilojsizlikdan ko‘p noqulay vaziyatlarga tushib qolamiz, ataylab qoidabuzarlik qilinmaydi, — deydi 65 yoshli haydovchi Anvar Bozorboyev. — Chuqurlikdan olib qochamiz yoki yoningizdagi haydovchi bir sabab bilan siz tomon avtomobil rulini burib yuboradi. Keyin majbur bo‘lasiz qoida buzishga. Bugungi harakat xavfsizligi qoidalarini buzganlik bo‘yicha jarimalarni to‘lashning o‘zi bo‘lmaydi. Har kuni yo‘lga chiqishga majburman. Chunki ertalab nevaralarimni bog‘chaga, kattalarini maktabga olib borishim kerak. O‘zlarini jo‘nata olmayman, yo‘llarda harakat oqimi juda katta. Bu qabul qilingan yangi hujjat bilan haydovchilarga taqdim etilayotgan yengilliklarni o‘qib juda quvondim. To‘g‘risiyam-da, ba’zi joylardagi chiziqlar o‘zi ko‘rinmaydi-yu, lekin jarimasi kelib turadi. Odamga alam qiladi-da axir. Adolat bor ekan, mana endi bu qaror nafaqat jarimalarni kamaytiradi, balki tirbandliklarning ham oldini oladi deb o‘ylayman.

Mamlakatimizdagi barcha yangilanish jarayonlari, islohotlar asosida “Inson qadri uchun” tamoyili yotibdi. Buning uchun, avvalo, aholi bilan bevosita muloqotni yo‘lga qo‘yib, muammolar, kamchiliklarni bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq-manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash bosh maqsadga aylandi.

Amalga oshirilayotgan islohot yoki joriy etilayotgan yangi tartiblardan maqsad aholiga naf keltirish, odamlar og‘irini yengil qilish bo‘lishi kerak. Buning natijasi xalqni rozi qilish bilan o‘lchanadi. Bu bugun yuritilayotgan siyosat talabi.

Gohida odamlarning ushbu masala Prezidentga yetib borsa, muammo bartaraf bo‘ladi degan gaplari qulog‘imizga chalinadi. Ijtimoiy tarmoqlarda faol muhokama qilingan masalalarga davlatimiz rahbari tomonidan izoh, yechim bo‘yicha tegishli topshiriqlar berilgani bilan bog‘liq misollar juda ko‘p.

Aholining yo‘l harakati qoidalari bilan bog‘liq turli jarimalarga nisbatan bildirilayotgan haqli e’tirozlari ham Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ko‘rsatib o‘tilgan. Buning natijasi Vazirlar Mahkamasining nomi yuqorida qayd etilgan qarori bo‘ldi. Bu qaror bevosita aholi ehtiyoji, so‘rovlar va ba’zi e’tirozlaridan kelib chiqqan masalalarni o‘z ichiga olib, ularning yechimlarini berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

— Davlatimiz rahbari topshirig‘iga asosan, sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolar va haydovchilar fikrlarini inobatga olgan holda takomillashtirib borilmoqda, — deydi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari Erali Bozorov. — Chunki yo‘l harakatini tartibga solishdagi ayrim normalar fuqarolar e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Bu qaror jamoatchilik fikri inobatga olinib, ularni bugungi kunda qiynab kelayotgan masala va muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqildi. Ish jarayonida yo‘l-transport hodisalari tahlillari, tegishli vazirlik va idoralar fikr va mulohazalari o‘rganildi. Bugungi kunda yurtimizda transport vositalari va aholi soni ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, harakat xavfsizligini ta’minlashda juda katta mas’uliyatni talab qiladi. Shu bilan birga, yo‘l infratuzilmasini ham rivojlantirish zarur.

Aslida, haqqoniy yozilgan jarimaga haydovchi ham, piyoda ham e’tiroz bildirmaydi. Lekin yaxshi ko‘rinmaydigan, sun’iy qo‘yilgan to‘siq yoki avtomobilni jiddiy shikastlashi mumkin bo‘lgan chuqurni aylanib o‘tayotganda hamda boshqa hollarda yo‘l chizig‘ini bosishga jarima qo‘llash adolatdan emas. Ayni masalaga aholi tomonidan haqli ravishda e’tiroz bildirib kelinayotgan edi.

IIV ma’lumotlariga ko‘ra, foto-video qayd etish texnik vositalari orqali birgina yo‘l chiziqlari bilan bog‘liq holatlar yuzasidan o‘tgan yilda 3,3 million haydovchi jarimaga tortilgan bo‘lsa, joriy yilning birinchi choragida 884 ming haydovchiga nisbatan jarima qo‘llanilgan.

Qarorga muvofiq, joriy yil 1-iyundan boshlab yo‘lning qatnov qismidagi chiziqlarni bosish holatlarini foto-video vositalar orqali rasmiylashtirish tartibi bekor qilinadi.

— Ijtimoiy tarmoq faoliman. Kuzatishlarim davomida tarmoqlarda e’tirozlar va tushunmovchiliklarga sabab bo‘layotgan ayrim qoidabuzarliklar haqidagi gap-so‘zlar juda ko‘p tarqalgan edi, — deydi bloger Asqar Jumaniyozov. — Misol tariqasida aytib o‘tishim kerakki, chorrahalardagi foto va video qayd etish vositalaridan yo‘l chiziqlari sabab kelayotgan jarimalarning aksariyati adolatsizlikdan boshqa narsa emas. Chunki haydovchi majburan bosishga to‘g‘ri kelgan holatlar ko‘p. Bunga ko‘pchiligimiz guvoh bo‘lganmiz yoki bevosita ana shu qoidabuzarlik sababchisimiz.

Endi yo‘l chiziqlarini bosib qoidabuzarlik sodir etish holatlarini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etishga yo‘l qo‘yilmaydi. To‘xtash chizig‘i — “stop-liniya” bundan mustasno ekani belgilab qo‘yildi.

Ya’ni haydovchi chiziqni bosib olsa, bu qoidabuzarlik fotoradar yoki videokamera orqali qayd etilmaydi, demak, avtomatik ravishda jarima yozilmaydi. Lekin YPX xodimi tomonidan aniqlanganda, qoidabuzarlik o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

Odatda dam olish kunlari sayohatga chiqamiz. Shunday vaqtda eng ko‘p asabimizni



kilometrlab cho‘zilgan sun’iy tirbandliklar buzadi. Sababi qayerdadir yo‘l ta’mirlanyapti yoki yo‘lga chiziq tortilmoqda. Bunday ta’mir ishlarini oddiy ish kunlarida ham qilish mumkin, aslida.

Qarorda bu masalaga ham yechim berildi. 2025-yil 1-iyundan boshlab shaharlar avtomobil yo‘llarida ta’mirlash yoki yo‘l chiziqlarini chizish bilan bog‘liq ishlarni soat 07:00 dan 21:00 ga qadar amalga oshirishga (dam olish kunlari, shuningdek, kechiktirib bo‘lmaydigan alohida holatlar bundan mustasno) yo‘l qo‘yilmaydi.

— Xorijiy tajriba va fuqarolar fikrini inobatga olgan holda yo‘llarda ta’mirlash yoki yo‘l chiziqlarini chizish bilan bog‘liq ishlarni tungi vaqtlarda amalga oshirish belgilanmoqda, — deydi E.Bozorov. — Bunday ishlar faqat kechasi, yo‘llardagi harakat kamaygan vaqtda amalga oshiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, tirbandliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Sohadagi yangiliklardan yana biri shundaki, ma’muriy jazolar tizimiga yangi — “ma’muriy ogohlantirish” ta’sir chorasini kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Loyihaga ko‘ra, yo‘l harakati qoidalarini buzish bilan bog‘liq ayrim yengil turdagi huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslarga DPX inspektori tomonidan ogohlantirish beriladi. Ogohlantirish bir yil ichida faqat bir marotaba berilishi mumkin.

Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning oltita moddasida ko‘zda tutilgan qoidabuzarliklarni sodir etgan shaxslar ma’muriy ogohlantirilishi belgilandi. Xususan, transport vositasini boshqarish vaqtida mobil aloqa vositasida gaplashish, videodasturlarni tomosha qilish maqsadida monitordan foydalanish, “To‘xtash taqiqlangan” va “To‘xtab turish taqiqlangan” qoidalarini buzish, majburiy sug‘urta talablari va piyodalar yo‘l harakati qoidalarini buzish shular jumlasidan.

Mazkur chora yo‘l harakati bilan bog‘liq ayrim yengil turdagi huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan inspektor tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Yana bir muhim jihat. Taqiqlovchi yoki tezlikni kamaytiruvchi belgi qo‘yilib, ustiga-ustak kamera o‘rnatilgan bo‘lsa, amal qilishga majbursiz. Garchi kechasi soat 00:01da temir yo‘ldan poyezd o‘tmayotgan bo‘lsa-da.

Bugungi kunda avtomobil yo‘lini kesib o‘tuvchi ayrim temir yo‘llarda hafta yoki kun davomida vagonlar harakatlanmasa-da, haydovchilar belgi oldida to‘xtashga majbur va natijada uzun tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Masalan, Toshkent shahrining Farg‘ona yo‘li ko‘chasi (ko‘prik oldida), Cho‘ponota va Shota Rustaveli ko‘chalari kesishmasi, Kichik halqa yo‘li (Qushbegi) singari yirik yo‘llarda zarurat bo‘lmasa-da, haydovchilar to‘xtashga majbur.

Qaror bilan avtomobil yo‘llaridan o‘tgan ayrim temir yo‘l kesishmalarida “Stop” belgilari boshqariluvchi svetoforlarga almashtirilishi belgilandi.

Shuningdek, jamoat transporti uchun ajratilgan yo‘llarda soat 23:00 dan 06:00 ga qadar boshqa transport vositalarining harakatlanishiga “To‘xtash taqiqlangan” va “To‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgilariga qo‘shimcha ravishda ularning amal qilish vaqtini o‘rnatgan holda ushbu hududda tungi yoki boshqa vaqtga to‘xtab turishga ruxsat beriladi.

— Jamoat transportiga ustuvorlik berish, tirbandliklarning oldini olish maqsadida avtomobil yo‘llarida alohida “A” tasmali yo‘laklar ajratilgan, — deydi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi axborot xizmati boshlig‘i Firdavs Xayriddinov. — Bu yo‘laklar avtobuslar harakati uchun ajratilgan, ya’ni boshqa transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan.

Qarorga ko‘ra, endilikda soat 23:00 dan boshlab deyarli barcha avtobus yo‘nalishlari o‘z ishini tugatishini hisobga olib hamda qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida boshqa transport vositalariga soat 23:00 dan 06:00 ga qadar alohida ajratilgan tasmalarda harakatlanishiga ruxsat berildi.

— Mazkur qaror bilan hududlarni o‘rganib chiqib, uning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olib, ko‘chalarda o‘rnatilgan “To‘xtash taqiqlangan” va “To‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgilarining maqsadga muvofiq o‘rnatilgani nuqtayi nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqilishi belgilandi, — deydi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarma boshlig‘i Anvar Abdullajonov. — Jumladan, zarurat bo‘lmagan joylarda o‘rnatilgan yo‘l belgilari demontaj qilinadi, ularning amal qilish vaqtini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha axborot belgilari o‘rnatiladi.

Eslatib o‘tish kerakki, qo‘shimcha axborot belgilarida belgilangan vaqtdan tashqari holatda to‘xtab turish qoidabuzarlik hisoblanmaydi. Qaror bilan shu belgilarda ko‘rsatilgan amal qilish vaqtidan tashqari paytda transport vositalarining tegishlicha to‘xtashi hamda to‘xtab turishiga ruxsat berildi. Masalan, “To‘xtab turish taqiqlangan” belgisining tagida amal qilish vaqti soat 07:00 – 21:00 deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, transport vositalari ushbu belgi hududida soat 21:00 dan 07:00 ga qadar bemalol to‘xtab turishi mumkin bo‘ladi.

— Men yashaydigan uy yonidagi davlat tashkiloti oldida “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi bor, — deydi haydovchi San’at Shokirov. — Tabiiyki, biz o‘sha uyda yashovchilar avtomobilimizni yashash joyimizga qo‘yamiz. Achinarlisi, menga mashinamni uyimning oldiga qo‘yganim uchun jarima keldi. Bu qarordan xursandligim shundaki, endi bemalol kechki paytdan ertalabgacha, ya’ni belgilangan vaqt oralig‘ida bunday imkoniyatdan foydalanishim mumkin. Men va menga o‘xshagan o‘sha yerda yashovchilar uchun bu juda qulaylik bo‘ldi.

Shuningdek, joriy yil 1-sentabrdan boshlab harakat tezligini nazorat qilishga mo‘ljallangan har qanday turdagi statsionar va mobil radarlar joylashgan hududda va ungacha kamida 250 metrdan kam hamda 500 metrdan ko‘p bo‘lmagan hududda “Radar” yo‘l belgisining o‘rnatilishi majburiy bo‘ladi.

Shuningdek, qarorga muvofiq:

— IIV tomonidan 2025-yil yakuniga qadar chorraha va yo‘llardagi barcha maxsus texnika vositalari to‘liq xatlovdan o‘tkaziladi;

— xatlov natijalari bo‘yicha o‘zboshimchalik bilan yoki belgilangan tartibga rioya etmagan holda o‘rnatilgan, texnik va standart talablariga javob bermaydigan texnika vositalari demontaj qilinadi;

— haydovchilar tomonidan tezlikni oshirish holatlari ko‘plab kuzatilayotgan hududlarda avtomashinalarning ayni vaqtdagi tezligini ko‘rsatib ogohlantiruvchi elektron tablolar o‘rnatiladi;

— tadbirkorlarning maxsus texnika vositalaridan foydalanishda shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, suiiste’molchiliklarning oldini olish choralari ko‘riladi;

— tadbirkorlik subyektlarining axborot bazalari va server qurilmalari “Xavfsiz shahar” markazi boshqaruviga o‘tkaziladi.

— Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida foto-video qayd etish tizimlaridan foydalanish yanada takomillashtirilib, “Xavfsiz shahar” markazi tomonidan texnik nazorat va monitoring tizimi kuchaytiriladi, — deydi IIV “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi direktori Ulug‘bek Kulanov. — Ya’ni davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bilan hamkorlikda foto-video qayd etish tizimlarining belgilangan yangicha talablarga muvofiq ishlashi ta’minlanadi.

Joriy yil yakuniga qadar tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘rnatilgan foto-video qayd etish tizimlarining ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash qurilmalari hamda dasturiy ta’minoti bosqichma-bosqich “Xavfsiz shahar” markazi boshqaruviga o‘tkaziladi. Tizimlarni uzluksiz monitoring qilish orqali ularning ishi to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda masofaviy ravishda doimiy nazorat qilib boriladi.

Bugungi kunda muhim masalalardan yana biri — maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofida soatiga 30 kilometrdan oshirmasdan harakatlanish mumkinligini ko‘rsatuvchi belgi. Tartibga ko‘ra, bu belgiga har qanday vaqtda amal qilishga majbursiz. Lekin dam olish kunlari, kechki payt, ta’til paytlari, ya’ni ta’lim muassasalarida bolalar bo‘lmagan vaqtda ham bu qoidaga amal qilish mantiqsizlikdan boshqa narsa emas.

Shuning uchun ham endilikda maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofidagi yo‘llarda yo‘l harakati qoidalari bilan belgilangan tezlik chegarasini dam olish kunlari, ta’til davrlarida va 19:00 dan 07:00 gacha vaqt oralig‘ida ushbu aholi punkti uchun ruxsat etilgan umumiy tezlik chegarasigacha oshirib harakatlanishga ruxsat berilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, bir qarashda ko‘zga tashlanmaydigan, lekin odamlar kundalik hayoti davomida duch keladigan ko‘plab masalalar bor. Bular aholining vaqti, asabi va cho‘ntagiga, pirovardida umumiy samaradorlikka ta’sir qiladi. Shu ma’noda aytadigan bo‘lsak, qabul qilingan qaror bilan katta muammolarga yetaklaydigan kichik muammolar bartaraf etilmoqda.

2025-yil 1-iyundan boshlab:



YO‘LNING QATNOV QISMIDAGI CHIZIQLAR bilan belgilab qo‘yilgan talablarga rioya etmaslik holatlarini har qanday maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari (keyingi o‘rinlarda — maxsus texnika vositalari) **ORQALI QAYD ETISHGA;**

shaharlar avtomobil yo‘llarida ta’mirlash yoki yo‘l chiziqlarini chizish bilan bog‘liq ishlarni **SOAT 07:00 DAN 21:00 GA QADAR AMALGA OSHIRISHGA** (dam olish kunlari, shuningdek, kechiktirib bo‘lmaydigan alohida holatlar bundan mustasno)

YO‘L QO‘YILMAYDI.

MAKTAB VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI atrofidagi yo‘llarda Yo‘l harakati qoidalari bilan belgilangan tezlik chegarasini **DAM OLISH KUNLARI, TA’TIL DAVRLARI VA 19:00 DAN 07:00 GA QADAR VAQT ORALIG‘IDA** ushbu aholi punkti uchun ruxsat etilgan umumiy tezlik chegarasigacha oshirib harakatlanishga

RUXSAT BERILADI.

Shuningdek:

SOAT 23:00 DAN 06:00 GA qadar yo‘nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo‘lda boshqa transport vositalarining harakatlanishiga;



AMAL QILISH VAQTINI ko‘rsatuvchi qo‘shimcha axborot belgilariga ega **“TO‘XTASH TAQIQLANGAN” VA “TO‘XTAB TURISH TAQIQLANGAN” YO‘L BELGILARI** joylashgan hududda ularning amal qilish vaqtidan tashqari paytda transport vositalarining tegishlicha **TO‘XTASHI HAMDA TO‘XTAB TURISHIGA;**

2025-yil 1-sentabrdan boshlab:



harakat tezligini nazorat qilishga mo‘ljallangan har qanday turdagi statsionar va mobil radarlar joylashgan hududda va ungacha kamida 250 metrdan kam hamda 500 metrdan ko‘p bo‘lmagan hududda “Radar” yo‘l belgisining o‘rnatilishi majburiy hisoblanadi.

2025-yil 1-sentabrga qadar:

joylardagi o‘rganishlar asosida yo‘llar bo‘yida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofida soatiga **30 KILOMETRDAN OSHIRMASDAN HARAKATLANISH MUMKINLIGINI** ko‘rsatuvchi yo‘l belgilari hamda bunga qat’iy rioya etishni ta’minlovchi maxsus texnika vositalarini o‘rnatish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘riladi.



IKKI OY MUDDATDA Yo‘l harakati qoidalariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

UCH OY MUDDATDA joylardagi tahlil va o‘rganishlar asosida barcha “To‘xtash taqiqlangan” va “To‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgilarining maqsadga muvofiq o‘rnatilgani nuqtayi nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqilishini, zarurat bo‘lmagan joylarda o‘rnatilgan yo‘l belgilarining demontaj qilinishini, shuningdek, ularning **AMAL QILISH VAQTINI KO‘RSATUVCHI QO‘SHIMCHA AXBOROT BELGILARI** o‘rnatilishi ta’minlanadi.

OLTI OY MUDDATDA TRANSPORT VAZIRLIGI bilan birgalikda transport vositalari haydovchilari tomonidan belgilangan harakat tezligini oshirib yuborish holatlari ko‘plab kuzatilayotgan hududlarda transport vositasining joriy tezligini ko‘rsatuvchi ogohlantiruvchi elektron tablolar o‘rnatilishi va bu amaliyotni keyinchalik o‘rganishlar asosida har yil yakuni bo‘yicha tasdiqlanadigan dasturga ko‘ra boshqa hududlarda amalga oshirib borilishi ta’minlanadi.

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz.uz

SUPURILGAN IZLAR

YOXUD SHAHAR QALBINI TOZALAYOTGANLAR



Soat tonggi 6:30 da telefonim jiringladi. Qo‘qqis qo‘ng‘iroqdan yuragim hapqirib turdim, go‘shakni ko‘tarsam, kimdir adashib tushibdi. Xotirjam bo‘lib o‘rnimga yotdim. Uyqum o‘chib ketdi, qancha urinsam ham qaytib uxlolmadim. Turib xonani bir muddat aylandim, qahva damlab, deraza yonidagi ish stolimga o‘tirdim. Nimadir yozishga urindim, bo‘lmadi.



Abu Bakir O‘ROZOV,
jurnalist

Iliq shabboda yarim ochiq deraza pardasini ohista silaydi. Kimdir shirin uyquda, kimdir biror yumush bilan yo‘lga otlanmoqda. Tuni bilan tinmagan mashinalar ovoziga boshqa shovqinlar ham qo‘shila boshlaydi. Shaharda hayot jonlanadi.

Tashqariga ma’nosiz qarab o‘tirar ekanman, katta yo‘l chetini tozalayotgan obodonlashtirish xodimiga ko‘zim tushdi. Keyin beixtiyor ishini kuzatib o‘tirdim. Oradan qancha vaqt o‘tganini bilmayman, lekin uning astoydil ishlayotgani, yo‘l bo‘yidagi ariqlarni ham qirtishlab tozalayotgani diqqatimni tortdi. Atrofida hech kim yo‘q, hech kim tepasida turib ish buyurmayapti (odatda tepasida kimdir turib ishlatsa, shunaqa mehnat qilishadi).

Uning o‘z uyini tozalayotgandek berilib ishlashini derazadan tomosha qilish o‘zimga nash’a qildi va yana bitta qahva damlab, pastga tushdim. Yaqinlashib, salom berdim va qahvani unga uzatdim.

Salomimga alik olarkan, ozgina orqaga tisarilib, savol mazmunida menga qaradi.

— Hormang, charchamasdan ishlayapsizmi?

— Bor bo‘ling, rahmat, o‘g‘lim, — dedi yoshlari elliklar atrofidagi ayol ustidagi to‘q sariq kiyimiga yopishgan changlarni qoqar ekan.

— Saharlab ishga chiqibsiz-da, ertaroq ishni tugatib ketasizmi? — dedim uni suhbatga tortish uchun.

— Yo‘q, — dedi ayol, — kun bo‘yi ishlaymiz, lekin ertalabki ish unumli. Qolaversa, odamlar qo‘zg‘alguncha shahar toza bo‘lsa yaxshi-da, — deya yana ishiga unnadi.

“Qahvani ichib oling issig‘ida, opa. Keyin davom ettiraverasiz”. Ham iltimos, ham iltifot ohangidagi ushbu taklifimdan so‘ng ikkalamiz yo‘l bo‘yidagi o‘rindiqqa o‘tirdik va suhbatimiz davom etdi. Anglaganlarim shu bo‘ldiki...

Farroshlar — shaharning nafasi. Olayotgan nafasimiz qanchalik zarur va kerakli bo‘lsa, shahar uchun farroshlar ham shunchalik muhim! Ularsiz shahar hayotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Har bir toza ko‘cha, bog‘, xiyobon va jamoat joyi ularning bir qarashda ko‘zga ko‘rinmasdek, lekin mashaqqatli mehnati evaziga saqlanmoqda.

Birortasining bir kun ishga chiqmaganini o‘sha hududning ahvolidan bilsa bo‘ladi. Agar ularning harakati va mehnati bo‘lmasa, shaharning turmush tarzi, ko‘rinishi va odamlarning ruhiy ahvoli ham buzilishi mumkin. Ha, to‘g‘ri o‘qidingiz, odamlarning ruhiy ahvoli ham buziladi. Maqolada bu masalaga alohida to‘xtalamiz.

Zulayho opa erta sahardan o‘rnidan turib issiq choy damlaydi, nonushta qiladi. Qolganini tartiblab, ustini yopib, kiyinib ko‘chaga chiqadi.



U obodonlashtirish boshqarmasida farrosh bo‘lib ishlaydi. Har kuni soat 6:30 da uyg‘onadi. Eri insult bo‘lgan, o‘g‘li chet davlatda, qizlari turmushga chiqqan. Har kungi yumushi — ko‘chalarni supurib, tozalaydi. Qishning qattiq sovug‘ida bo‘ladimi, yozning jaziramasimi, farqi yo‘q, o‘z vazifasini astoydil bajaradi. Uning ish haqi esa arzimas — oyiga 2,5 million so‘m atrofida. Bu pul bilan uy-ro‘zg‘or, dori-darmon, elektr, suv, gaz haqini to‘lash — o‘ziga xos matematika.

Qaynoq qahvadan ho‘plar ekanman, Zulayho opaning qadoq qo‘llariga ko‘zim tushdi-yu, kompyuter tugmachalarini bosishdan nariga o‘tmay, noziklashib ketgan qo‘llarimni bekitdim.

Kamsitish va buzilgan ijtimoiy adolat

Har qanday jamiyatda kamsitish va ijtimoiy adolatning buzilishi, eng avvalo, uning eng zaif qatlamlariga taalluqli bo‘ladi. Negadir odamlar farrosh, kunlik ishchi, ko‘cha supuruvchi, tozalik xizmatchilari kabi qatlamlarga qandaydir bee’tibor munosabatda bo‘ladi. Ba’zi hollarda esa farroshlar haqoratlar, behurmat munosabatlarga uchraydi. Aksariyatimiz ko‘chamizni tozalagani uchun o‘sha farroshga hech qachon minnatdorlik bildirmaymiz, balki ko‘chaning tozalanmagani yoki turli chiqindilar borligi uchun tanbeh berganimiz bor gap.

Tahlillarga ko‘ra, mehnat bozorida ushbu qatlamning imkoniyatlari cheklangan. Farrosh, kunlik ishchi yoki tozalik xizmati xodimi uchun yillik istirohat, qo‘shimcha rag‘batlantiruv, kasbiy rivojlanish imkoniyati deyarli yo‘q. Eng yomoni — ularning ish haqi ham turmush uchun yetarli emas.

2023-yil yakunlari bo‘yicha tayyorlangan hisobotlarga ko‘ra, mamlakatimizning ayrim shaharlarida tozalik xizmatchilarining oyligi 1,5-2 million so‘m atrofida bo‘lgan. Bu mablag‘ bilan oila boqish, farzand o‘qitish, kommunal to‘lovlarni to‘lash, zarur bo‘lganda tibbiy xarajatlarni qoplashni o‘zingiz tasavvur qilib ko‘ravering.

Qolaversa, jamiyatdagi ijtimoiy imtiyozlar ham ular uchun deyarli mavjud emas. Jamoat transportida bepul yurish, farzandlarini bolalar bog‘chasiga navbatsiz yo qandaydir imtiyoz bilan qo‘yish, maktabga qo‘shimcha yordam, tibbiy sug‘urta — bularning aksari ushbu qatlam uchun yo‘q yoki juda og‘ir shartlarda.

...Zulayho opa bilan shular haqida suhbatlashib o‘tirar ekanmiz, yo‘l chetida hozirgina yig‘ib qo‘ygan chiqindi uyumidan norozi bo‘lgan bir haydovchi uni haqorat qilib o‘tib ketdi, opa jim.

— Faqat kechqurun uyga borib ko‘zimga yosh keladi, — deydi Zulayho opa. — Chunki oila boqaman, turmush o‘rtog‘im sog‘ paytida ahvolimiz ancha yaxshi edi. Hozir ham yomon emas, u darajada noliydigan, och qoladigan ahvolda emasmiz. Topganim ro‘zg‘orga yetib turadi. Lekin jamiyatimizda, atrofimizda mana shunga o‘xshagan insonlarning ko‘pligidan yuragim eziladi.

Eng og‘iri — e’tiborsizlik

Farrosh va kunlik ishchilarga e’tibor va munosabatni o‘zgartirish faqat mehr-muruvvat emas, jamiyatdagi umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasi hamdir. Har qanday toza shahar ortida bir insonning qadoq qo‘li va yuragi turganini anglash, unga e’tibor qilish har bir fuqaroning vijdon vazifasidir.

Zulayho opa bilan bir soatlar atrofida suhbatlashdim. Shu vaqt ichida ish ko‘lami, yaratilgan sharoitlardan nolimadi. To‘g‘ri, o‘ynab-kulib pul topadigan ish emas, lekin haqiqiy mehnat, qalb bilan dardlashib ishlaydigan jarayon ekan.

Quyosh bosh ko‘tarib, odamlar ko‘payganda opa bilan xayrlashib, uyga kirdim. Ishxonaga yetib kelganimda ham Zulayho opaning gaplari, fikrlari qulog‘im ostida jaranglayverdi.

Jamiyatda ushbu qatlamga nisbatan munosabatni o‘zgartirish uchun, avvalo, ularning mehnatini tan olish, qadrlash va ochiq e’tirof etish kerak, nazarimizda. Masalan, Xitoyning ba’zi shaharlarida farroshlar uchun alohida “Qahramonlar kuni” o‘tkaziladi va ular shahar rahbariyati tomonidan e’tirof etilib, turli sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

2022-yilda Janubiy Koreyaning Seul shahrida shahar tozalik xizmati xodimlari uchun yangi turdagi ijtimoiy himoya dasturi ishlab chiqilgan. Unda ularga yillik tibbiy ko‘rik, farzandlari uchun ta’lim imtiyozlari va maoshi bilan birga rag‘batlantirish to‘lovlari ham belgilangan. Natijada jamiyatda ularning nufuzi oshib, e’tibor kuchaydi.

Farroshlar haqida ijtimoiy fikrni o‘zgartirish faqat davlatning emas, balki har bir insonning ma’naviy burchidir. Agar jamiyat haqiqiy tenglik va insoniylikni tarbiya qilmoqchi bo‘lsa, birinchi navbatda, shunday qatlamlarni qadrlashdan boshlashi kerak.

Xayolimdan o‘tgan shu fikrlar bilan mamlakatimizda obodonlashtirish boshqarmalari xodimlarining moddiy-texnik ta’minoti, ma’naviy jihatdan qanchalik ta’minlangani to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan qiziqdim. Shu paytgacha sohada malakali kadrlar yetishmasligi, ularni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy ta’minlash past darajada ekani, shuningdek, ta’sirchan jamoatchilik nazorati yo‘qligi qator muammolarga sabab bo‘lib kelayotgan ekan.

Prezidentimizning 2019-yil 4-iyundagi hamda 2021-yil 2-apreldagi tegishli qarorlarida obodonlashtirish boshqarmalarining kuch va resurslaridan oqilona foydalanish, ularning ishini optimallashtirish, qo‘l mehnatini kamaytirish, shuningdek, obodonlashtirish sohasidagi ishlarni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy vazifa va yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Mazkur qarorlar bo‘yicha qilingan ishlar natijalari bilan qiziqqanimda quyidagi ma’lumotlarga duch keldim. 2020-2024-yillar davrida tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash parametrlari qabul qilinib, 1423 ta texnika va mexanizm xarid qilinishi belgilangan. Shundan 2020-2022-yillarda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 1039 ta texnika va mexanizm xarid qilingan. Buning uchun 374,9 milliard so‘m yo‘naltirilgan.

Obodonlashtirish xodimlariga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish ham mazkur hujjatlarda belgilab berilgan. Xususan, 2020-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarning shahar, tuman obodonlashtirish boshqarmalari xodimlari uchun mehnatga haq to‘lash tarmoq tarif setkasi miqdorlari Toshkent shahri tuman obodonlashtirish boshqarmalari xodimlari uchun nazarda tutilgan miqdorlar bilan tenglashtirilgan, respublikaning shahar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari ishchi-xodimlarining o‘rtacha oylik ish haqi 40-50 foizgacha oshirilgan.





Uyg‘oq fikr

Toshkent shahri hokimligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan obodonlashtirish hamda Mustaqillik maydonini ko‘kalamzorlashtirish boshqarmalari xodimlariga har oyda lavozim maoshining 30 foizi miqdorda ustama hamda viloyat markazlari, viloyat bo‘ysunuvidagi shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari xodimlariga har oyda lavozim maoshining 15 foiz miqdorida qo‘shimcha ustamalar belgilangani odamni xursand qiladi, albatta.

Shuningdek, shahar, tuman obodonlashtirish boshqarmalari xodimlariga har oyda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida ovqatlanish uchun kompensatsiya pullari to‘lash tartibi belgilangan.

Mazkur ma’lumotlarga ko‘zim tushib, Zulayho opaning o‘z ish sharoitidan nolimagani, faqat odamlarning ularga nisbatan munosabatidan ko‘ngli bir oz og‘rishini aytgani yodimga tushdi.

Albatta, har bir ishning samarasi va natijasi taqqoslarda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, insoniylik yuzasidan bu soha vakillariga boshqa davlatlarda munosabat qanday ekani bilan qiziqdim.

Tozalik — jamiyat madaniyati belgisi

Yaponiya — ishchilarning huquqlarini himoya qilish va ish sharoitlarini yaxshilash borasida yetakchi davlatlardan biri. Kunchiqar yurtda farroshlar va kunlik ishchilar mehnati ko‘pincha yuqori texnologiyalar bilan ta’minlangan, ijtimoiy himoya tizimi mustahkam. Ishchilar uchun huquqiy me’yor va qonunlar, jumladan, ish haqi va ishlash sharoitiga oid tizim juda rivojlangan.

Bu yurtda shaharlarni tozalash bilan shug‘ullanadigan farroshlar uchun samarali tizimlar va jahon andozalariga mos keluvchi sanitariya xizmatlari mavjud. Ishchilarning samaradorligi yuqori va ularning ish sharoiti muntazam ravishda tekshiriladi. Shuningdek, ish haqi va ijtimoiy himoyasiga katta e’tibor qaratiladi.

Shvetsiya ijtimoiy adolat, ishchilarning huquqlari va mehnat shartlarini doimiy yaxshilashi bilan mashhur. Bu davlatda farroshlar va kunlik ishchilar uchun yuqori ijtimoiy ta’lim va qonuniy himoyalar mavjud, qo‘shimcha huquqlar ham bor. Misol uchun, ularga yaxshigina nafaqa, ta’tillar va o‘ziga xos sog‘liqni saqlash xizmatlari berilgan. Shuningdek, ishchilarning shaxsiy vaqtini hurmat qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

Hindistonda esa farroshlar hamda kunlik ishchilarning ishlash shartlari katta va kichik shaharlar orasida sezilarli farq qiladi. Mehnat sharoiti va ish haqi past bo‘lgan yoki noto‘g‘ri ishlash shartlariga ega bo‘lgan mamlakatlardagi ishchilarning hayoti aniq ko‘rinadi.

Bu davlatda ham farroshlar va kunlik ishchilar uchun qonunlar mavjud, ammo ularning amaldagi ijrosi va mutlaq huquqlariga rioya qilish aniq emas. Ko‘pincha ishchilar oilaviy hayoti bilan bog‘liq qator ijtimoiy kamsitishlar va ish sharoitidagi muammolardan tashqari qonuniy himoyalar bilan ham ta’minlanmagan. Bu ishchilarning ijtimoiy bandligini yanada og‘irlashtiradi.

Braziliyaning ayrim hududlarida esa ishchilarning mehnatga oid huquq va shartlari har xil. O‘z vaqtini erkin ishlashga, teng takomil va sharoitlar olishga muvaffaq bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha farroshlar o‘z haqlariga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, ijtimoiy kamsitishlar yoki ish sharoitiga qo‘yilgan cheklovlar sezilarli muammolarni paydo qiladi.

Xalqaro miqyosdagi misollarga murojaat qilganda ikkitadan rivojlangan va kam e’tiborda bo‘lgan davlatni qiyosga tortdik. Maqsad — yurtimizda mazkur sohaga e’tiborni to‘g‘ri talqin qilish.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, shahar tozaligi nafaqat estetik masala, balki sog‘liq va jamiyat madaniyatining belgisi hamdir. Biroq bu tozalikning ortida qanday mehnat borligini anglash va uni qadrlash ko‘p hollarda e’tibordan chetda qoladi. Yulduzli konsertlar, yirik siyosiy tadbirlar, bayramlar, to‘ylar kabi ko‘p sonli odamlar yig‘iladigan izdihomlar tugasa, sahna yopilsa, odamlar tarqalgandan keyin sahna ortida farroshlar qoladi. Aynan ular kechagi shodligu quvonchdan qolgan barcha sarishtasiz izlarni supurib, ertangi kunga tayyorlaydi.

Ikki ming izga bir supurgi

Shaharning ko‘zga ko‘rinmas, ammo asosiy mehnatkashlari bo‘lgan bu kasb vakillari sog‘lom jamiyatning o‘zgarmas qismidir. Bugun qaysi bir hududga qay fasl yoki vaqtda bormang, ushbu tashkilotning zahmatkash xodimlarini yo‘llar chetida, jamoat joylarida obodonlashtirish ishlari bilan mashg‘ul holatda uchratasiz.

Amaldagi mehnat qonunchiligimizga binoan ish beruvchi hamda xodim o‘rtasida tuziladigan mehnat shartnomalariga muvofiq, ish beruvchilar tomonidan xodimlar o‘z vazifasini bajarishi uchun barcha sharoit yaratib berilishi lozim.

Lekin ko‘cha va xiyobonlarni obodonlashtirishga mas’ul bo‘lgan xodimlarning mehnat muhofazasi, yaratib berilgan ish sharoitlari hamda oyligi boshqa kasblarga nisbatan qoniqarsiz.

Bunday deyishimizga sabablar bor, albatta. Xususan, xodimlarning tushlik qilishi uchun yetarli sharoitlar yaratib berilmaganiga juda ko‘p ko‘zimiz tushadi. Ular o‘zlari ishlayotgan joylarda, gigiyenik talablarga amal qilmasdan ovqatlanishga majbur bo‘ladi. Qolaversa, mehnat qonunchiligida ularning ish vaqti aniq belgilanmagan yoki mehnat shartnomasida belgilangan normalarga amal qilinmaydi. Chunki yoz faslida ertalabki soat 06:00 da yoki kechki 19:00 dan keyin ham ularning ish bilan bandligiga ko‘p guvoh bo‘lganmiz.

Ish vaqtidan tashqari soatlarda ham ularni tez-tez chaqirib qolishadi. Bayramlar arafasida yoki turli tadbirlar, xazonrezgi vaqtida esa ish yuki ikki-uch barobar ortgan bo‘ladi.

Shu masalada mas’ullar bilan bog‘langanimizda, Prezidentimizning 2019-yil 4-iyundagi “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan 2020-yil 1-yanvardan obodonlashtirish bo‘linmalari xodimlariga ovqatlanish uchun eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida kompensatsiya to‘lab berilayotganini ma’lum qilishdi.

Albatta, bu kabi ishlar soha xodimlarning mehnatini qadrlash va munosib ish sharoiti yaratishda qo‘l kelmoqda. Shu bilan birga, ish ko‘lami ortib borayotganini ham qayd etib o‘tish o‘rinli.

Misol uchun, 2019-yilda shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko‘kalamzorlashtiriladigan hamda obodonlashtiriladigan maydonlar hajmi 203 ming 569 kvadrat metrni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, 227 ming 791 kvadrat metrga yetgan. Ya’ni ko‘kalamzorlashtirish maydoni 24 ming 222 kvadrat metrga ortgan. Natijada obodonlashtirish boshqarmalarida mavjud shtat birliklari ish yuklamalarining me’yorlarga nisbatan farqlari sezilarli darajada oshgan.

2023-yil boshidagi ma’lumotlarga ko‘ra, obodonlashtirish sohasidagi ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda sarflanadigan vaqt va boshqa me’yorlar bo‘yicha tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari xodimlarining me’yorlangan sonini belgilash to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli hisob-kitoblariga asosan o‘zgartirish kiritilgan.

Ushbu yo‘riqnoma bo‘yicha bir-biridan mustaqil obodonlashtirish boshqarmalari faoliyati bo‘yicha ular tasarrufidagi hududlar qayta xatlovdan o‘tkazilib, boshqarmalar kadastr hujjatlari va pasportlari yangidan tasdiqlangan, shtat birliklari talabi qayta hisob-kitob qilingan.

Hisob-kitoblarga asosan, 201 ta tashkilotda 2019-yilda jami 53 ming 586 ta shtat birligi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, hukumat qarorlariga asosan yangi tashkil etilgan obodonlashtirish tashkilotlari hamda belgilangan me’yorlarga ko‘ra 229 ta tashkilotda shtat birliklari 65 ming 575 tani tashkil etdi. Qariyb 12 mingta shtat birligi shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalariga ajratib berilgan.

Toshkent shahri Obodonlashtirish boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, bugun tizimda ko‘kalamzorlashtirish ishchisi, irrigator, obodonlashtirish ishchisi, farrosh, haydovchi, yo‘l ishchilari kabi mutaxassislar mehnat qiladi.

Boshqarma tarkibidagi tashkilotlarda 9546 xodim mehnat qilib, shahar obodligi va sarishtaligi uchun mas’ul hisoblanadi. Ularning oyligi bugungi kunda o‘rtacha 2 million 200 ming so‘mdan 3 million 200 ming so‘mgachani tashkil qiladi. Shaharning tozaligi uchun bir kunda 3077 farrosh va obodonlashtirish ishchisi safarbar etiladi.

Endi do‘ppini boshdan olib, bir hisob-kitob qilsak. Toshkent shahri Statistika boshqarmasi bergan ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, bugun shaharning doimiy aholisi soni 3 million 128 ming 458 nafarni tashkil etmoqda (2025-yil 1-aprel holati). Bu raqamni bir kunda shahar tozaligi uchun xizmatga chiqadigan farroshlarga bo‘lsak, har ming odamga bir farrosh to‘g‘ri keladi. Yana ham aniqrog‘i, 2000 ming izni supurishga bir supurgi.

Bu ma’lumotlarni tahlil qilar ekanman, uning qo‘lidagi supurgi shunchaki mehnat quroli emas, balki ko‘chalarimizni obod qilib, insonlar hayotiga qulaylik bag‘ishlayotgan timsol ekanini his qildim. Ammo biz bu mehnatning ortidagi inson, uning hayoti, orzularini unutib qo‘ygandekmiz. Ularning ishini yana ham qadrlashimiz, imkoni boricha qo‘shimcha qulaylik va imtiyozlar joriy qilish vaqti kelganini tushunishimiz kerak.

Mazkur soha vakillari uchun kommunal to‘lovlar, jamoat transporti, bolalar bog‘chalari va davlat muassasalarida imtiyozli tartiblar joriy etilsa, nimasi yomon?

Ayniqsa, qish faslida muz, sirpanchiq, qattiq shamol, yozning issiq kunlaridagi og‘ir sharoitlarda ishlash xavfini inobatga olib, har bir ishchiga mavsumiy kiyim, himoya vositalari va ish uskunalarini bepul berish mumkin emasmi?

Yoki navbatdan tashqari tibbiy ko‘riklar va davolanish imkoniyatini yaratish bilan ularni qanchalar e’zozlagan bo‘lardik.

Har bir mahalladagi mehnat muhiti, ishchi-xodimlar huquqlari va sharoitiga aholi vakillari va OAV orqali jamoatchilik nazorati o‘rnatish, mahalla va fuqarolar yig‘inlari qoshida “tozalik jamoasi”ga yordam kengashlarini tuzish orqali imkoniyatlarni yanada kengaytirsa bo‘ladi.

Maqolani yozib tugatar ekanman, Zulayho opaning “Bizning ishimizni hech kim bilmasa ham mayli, shahar toza bo‘lsa, jamiyat ham, odamlar ham faqat yaxshi tomonga o‘zgaradi, men shundan xursand bo‘laman”, degan gaplari qulog‘im ostida jarangladi.

Darhaqiqat, har bir supurilgan iz ortida bir umr, bir taqdir, bir yurak bor. Shuning uchun ham jamiyat sifatida bizning burchimiz nafaqat shaharlarimizni, balki ushbu mehnatkash insonlarning hayotini ham obod qilish bo‘lmog‘i zarur.

Axir tozalik faqat supurgida emas, avvalo, qalbimizda bo‘lishi kerak. Hech bir iz shunchaki supurilmaydi. Ayrim izlar esa insonning qalbida abadiy qoladi. Keling, ushbu soha vakillarining ham izini, mehnati va orzusini qadrlaylik.

Munosabat

YOSHLAR TAYANCH BO‘LSA, EL YUKSALADI

Bugun yurtimizdagi islohotlar markazida inson, yosh avlod taqdiri turibdi. Ta’lim-tarbiya tizimi davlat taraqqiyotining bosh mezoni, mamlakat kelajagi poydevori sifatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, har bir soha rahbari, har bir ustoz va ta’lim fidoyisi uchun yoshlarga munosib kelajak yaratish, bilim olishi, shaxs sifatida shakllanishi va vatanparvar bo‘lib voyaga yetishi yo‘lida sidqidildan xizmat qilish nafaqat burch, balki mas’uliyatdir.



Shohrux DALIYEV,
oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari

Joriy yil 15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta’limning mazmun-mohiyatini tubdan yangilash, o‘quvchi va o‘qituvchi manfaatlarini himoya qilish, eng muhimi, yosh avlod uchun munosib o‘qitish muhitini yaratishga qaratilgan qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari Termiz davlat pedagogika instituti misolida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish haqida gapirar ekan, butun pedagogika oliygohlari uchun yangi strategik yo‘nalishni belgilab berdi. Bu jarayonda kuchli xorij oliy ta’lim muassasalari — Myunxen texnika universiteti va Kembrij universitetining eng yaxshi ta’lim dasturlari asos qilib olinadi.

Mazkur oliy ta’lim tashkilotlari ta’lim va ilmiy salohiyat bo‘yicha katta muvaffaqiyatga erishgan. Jumladan, Myunxen texnika universiteti asosan texnika, muhandislik va tabiiy fanlar yo‘nalishida innovatsion yondashuv va amaliy ta’lim berishda katta tajribaga ega. Bu muassasada talabalar nazariya bilan birga sanoat va texnologiya talablariga mos bilim ham oladi.

Shuningdek, universitet sanoat korxonalari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatgan, yoshlarga o‘z sohasida amaliyot o‘tash va tajriba to‘plash imkoni mavjud. OTMdagi tadqiqot markazlari esa yangi g‘oya va innovatsiyalar yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Bilim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan bu sa’y-harakatlar orqali yoshlarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliyotda qo‘llanadigan ko‘nikma ham beriladi. Masalan, fanlar soni va yo‘nalishlarni kamaytirish, o‘quv yuklamasini qisqartirish, talaba uchun zarur va muhim yo‘nalishlarga e’tiborni kuchaytirish lozim. Bu esa ta’lim sifati oshishi, talabalar bilimi va salohiyatining to‘liq ochilishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat pedagoglar malakasini oshirishdir. Xorijiy til sertifikatiga ega o‘qituvchilarni Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi ilg‘or davlatlarga yuborish, ularning xalqaro standartlarga mos ta’lim usullarini o‘rganishini ta’minlash bugun davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifaga aylandi. Shu tariqa mamlakat bo‘yicha pedagoglar malakasi oshiriladi.

Bu islohotlar nafaqat ta’lim tizimini modernizatsiyalash, balki jamiyatda bilimga munosabatni o‘zgartirishga xizmat qiladi. Yoshlarga bugun faqat bilim berish kifoya qilmaydi. Ularni mustaqil fikrlash, masalaga ijodiy yondashish va yangi imkoniyatlardan foydalanishga o‘rgatish ham zarur. Buning uchun o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt va innovatsiyalarni keng joriy etish kerak.

Har bir muallim nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarga rahbar, ustoz va hayotda yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lishi lozim. Zero, ta’lim faqat fanlar yig‘indisi emas, balki shaxs tarbiyachisi, ma’naviy boylik yaratuvchisidir. Pedagoglar o‘z ishiga chuqur mehr va mas’uliyat bilan yondashsa, yoshlarda vatanparvarlik, insoniylik va ishonch ruhi mustahkamlanadi.

Nodavlat oliygohlar uchun keng sharoitlar yaratilishi yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq qulayliklar bilan birga javobgarlik ham ortadi. Pedagogika yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarning asosiy qismi maktabgacha va boshlang‘ich ta’limga



hamda filologiyaga yo‘naltirilgani, albatta, soha uchun muhim, ammo ilm-fan va texnologiyalar rivojlanayotgan davrda aniq va tabiiy fanlarga e’tibor kuchaytirilishi shart.

Prezidentimiz ta’kidlashicha, xususiy oliygohlardagi pedagogika yo‘nalishlari davlat oliy ta’lim tashkilotlariniki bilan bir xil standartlarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qitish sifatining umumiy darajasini oshirish, yosh mutaxassislarning zamonaviy sohalarga tayyorlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, pedagog va talabalarning bilimi tashqi diagnostikadan o‘tkazilishi sifat nazoratining samarali vositasi bo‘lib, ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni tez aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi.

Keng ko‘lamli chora-tadbirlar tufayli mamlakatimiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inida sifatli, zamonaviy va milliy ehtiyojlarga mos kadrlar tayyorlash yo‘lida mustahkam poydevor qo‘yilmoqda. Bu kelajakda iqtisodiyot va jamiyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, har bir OTM va pedagog o‘z zimmasiga tushgan mas’uliyatni anglab, talabalarni yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi, xalqaro darajada raqobatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalash uchun tinimsiz izlanishi, mehnat qilishi zarur.

Davlatimiz rahbarining “Aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha pedagoglarni ko‘paytirmasak, IT, “yashil” energetika, sun’iy intellekt, yangi materiallar kabi dolzarb sohalarga minglab kadrlarni qayerdan yetkazamiz?” degan murojaati oddiy e’tiroz emas, balki butun ta’lim tizimi kelajagini belgilovchi fundamental haqiqatdir. Chunki zamonaviy dunyoda har bir sohaning ildizi ta’limga, negizi esa fan asoslarini puxta biladigan, yangilikka intiluvchan zamonaviy pedagoglarga borib taqaladi.

IT, “yashil” energetika, sun’iy intellekt, yangi materiallar — bular XXI asrning eng dolzarb, eng istiqbolli yo‘nalishlari. Bu sohalarda yetakchi bo‘lish uchun bizga kuchli, bilimli, zamonaviy texnologiyalarni chuqur tushunadigan mutaxassislar kerak. Ammo bu mutaxassislar bir kunda paydo bo‘lmaydi. Ularni kim o‘qitadi? Albatta, maktabdagi fizika, kimyo, biologiya, matematika o‘qituvchilari.

Agar biz bugun shu fanlarga ixtisoslashgan pedagoglar tayyorlashni kuchaytirmasak, ertaga innovatsion iqtisodiyotimizda yetishmaydigan asosiy kuch aynan inson kapitali bo‘lib qoladi. Shu bois, ham davlat va nodavlat oliygohlarda pedagogika yo‘nalishlari endi bir xil mezon — teng raqobat, yagona sifat talablari, eng muhimi, yosh avlod uchun barobar imkoniyatlar yaratish asosida yo‘lga qo‘yiladi. Biz porloq kelajakni o‘ylasak, bugun aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha pedagoglarni ko‘paytirish eng muhim strategik vazifamiz bo‘lishi shart.

Yig‘ilishda Prezidentimiz yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yagona tizim bo‘lishi kerak, deb alohida ta’kidladi. Bu so‘zlar nafaqat islohotlarga ko‘rsatma, balki yuksak g‘amxo‘rlik, yurt kelajagi uchun chuqur mas’uliyat hissi bilan aytilgan murojaatdir. Zero, yoshlar ta’lim olsin, tarbiya topsin, bilim bilan qurollansin, bo‘sh vaqtini foydali mashg‘ulotlar bilan o‘tkazsin. Aynan shular orqali biz taraqqiyotga, xavfsizlikka va barqaror kelajakka erishamiz.

O‘z navbatida, ushbu vazifalarni amaliyotga tatbiq etish uchun barcha ta’lim tashkilotida xorijiy tillarni o‘qitish, sun’iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi zamonaviy yo‘nalishlarda to‘garaklar tashkil etish, shuningdek, o‘quvchi va talabalar o‘rtasida ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan yangi tizim yaratish vazifasi ham qo‘yildi. Bu tashabbus yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish, muhimi, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbarining “Yozgi ta’til vaqtida birorta ta’lim muassasasi yopilmaydi. Ulardagi sport inshootlari va maydonlari hamda o‘quv xonalarida sport va kasbiy to‘garaklar ochiladi. San’at ko‘rgazmalari, she’riyat kechalari va intellektual o‘yinlar tashkil etish lozim”, degan gaplarini yoshlarga g‘amxo‘rlik va amaliy yechimni o‘z ichiga olgan mukammal yo‘l xaritasi sifatida qabul qilishimiz lozim. Bu yoshlarimizning ijodiy salohiyati yuzaga chiqishi, sog‘lom va faol hayot tarzini shakllantiradigan keng imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi jamoasi ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashga to‘la mas’uliyat bilan yondashmoqda. OTMlar huzurida yozgi ta’til davrida ham ta’lim-tarbiya jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, sport va madaniyat to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilyapti.

Bugunning talabiga mos ravishda oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya muhitini sog‘lom, ilg‘or va faol tashkil etish kelajak bunyodkorlarini voyaga yetkazishga qaratilgan uzviy jarayondir. Yoshlarimizni qanday muhitda tarbiyalasak, ertangi jamiyat ham shunday shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, talabalarning yozgi ta’tilini mazmunli tashkil etish bo‘yicha aniq va amaliy choralar belgilandi. Hozir barcha OTMlarda yoz oylarida sport to‘garaklari, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga oid mashg‘ulotlar, chet tillar, dasturlash, grafik dizayn va animatsiya bo‘yicha o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yilyapti. Talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida adabiy kechalar, intellektual bellashuvlar, teatrlashtirilgan chiqishlar va san’at ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Shuningdek, yurtimizning tarixiy, madaniy va tabiiy go‘zal hududlariga sayohatga jalb etish orqali talabalar qalbida vatanparvarlik va faxr tuyg‘usini mustahkamlash ko‘zda tutilgan.

Ichki turizmni rivojlantirish, madaniy va tarixiy obidalarga sayohat uyushtirish orqali talabalar o‘z vatani bilan yaqindan tanishadi, iftixor hissi, vatanparvarlik ruhi yanada mustahkamlanadi. “Vatan bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida o‘tkaziladigan tashriflar yuz minglab yoshni qamrab oladi.

Bundan tashqari, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan turli to‘garaklar — robototexnika, dasturlash, sun’iy intellekt, 3D modellashtirish, grafik dizayn, video-montaj, startap loyihalar bilan ishlash kabi yo‘nalishlarda faoliyat yo‘lga qo‘yiladi. Bu imkoniyatlar yuz minglab yoshlar uchun o‘z qobiliyatini namoyon qilish, yangi salohiyat eshiklarini ochishga zamin yaratadi.

Yoz fasli ilhom mavsumi hamdir. She’riyat kechalari, san’at ko‘rgazmalari, intellektual o‘yinlar, ijodiy tanlovlar, ijtimoiy tarmoqlar uchun foydali kontent yaratish loyihalari talabalarni ruhan boyitadi. Bunda ular nafaqat tomoshabin, balki ijodkor sifatida ishtirok etadi.

Yoshlarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun “Karyera kunlari” tashkil etiladi. Mazkur tadbirlar orqali bitiruvchilar o‘z sohasi bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri ish beruvchilar bilan muloqot qiladi va bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot oladi. Bu esa ularning kelajagini aniq belgilashiga zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbarining har bir farmoni va qarori zamirida inson taqdiri, baxti va kelajagi turibdi. Bu siyosat markazida esa yoshlar bor. Yoshlar tayanch bo‘lsa, el yuksaladi, yoshlar ilmli bo‘lsa, millat taraqqiy etadi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar uchun imkoniyatlar zamoni boshlangan. Endigi asosiy vazifa bu imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish, uning samarasini jamiyat taraqqiyotida, har bir oila baxt-saodatida namoyon etishdir.

Kun mavzusi




TA’LIM VA IJTIMOIY LOYIHALAR MUSHTARAKLIGI

Insoniyat bor ekan, uning taraqqiyotini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya kabi tushunchalar har bir jamiyatda mavjud bo‘ladi. U yangi tamaddunlarni boshlab beradi. Zotan, taraqqiyot asosini kuchli ishtiyoq va harakatdan avval, albatta, ilm tashkil etadi. Azaliy qonuniyat shunday — ilm-fanni tayanch ustun deb bilgan jamiyat va davlat aslo yutqazmaydi. Har qanday mamlakatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta’lim tizimi aniqlab beradi. Ushbu tizimga munosabati esa davlatning kelajagini belgilaydi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi islohotlar zamonaviy tendensiyalarga mos holda rivojlanib bormoqda. Jumladan, oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab ta’limi uchun mablag‘ yetti barobar oshirildi. Jumladan, joriy yil uchun 60 trillion so‘m yo‘naltirilgan. Maktablarda

1 million, bog‘chalarda 1,5 million yangi o‘rin ochildi. Natijada qamrov darajasi 3 barobar oshib, bog‘chalarda 78 foizga yetdi. Bu, shubhasiz, infratuzilmaviy islohotlarda katta bosqichdir. Biroq mahoratli pedagoglar sifatisiz bu raqamlar kutilgan natijani bermaydi.

Shu bois, yaqinda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, xususan, pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.



> **Ayni damda qabul qilinayotgan qarorlar, bajarilayotgan ishlar zamiridagi asl mohiyat ham shunda: inson texnologiyalarni emas, avvalo, o‘zini o‘rganishi, bugungi imkoniyatlarga tayyorlashi darkor. Ertangi kunga o‘zida ishonch uyg‘otmas ekan, boshqalarni ham ishontira olmaydi.**

O‘ZINGIZNI BUGUNGI IMKONIYATLARGA TAYYORLANG!

Eldorjon DIYOROV,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 31-maktab o‘qituvchisi:



— Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida o‘qituvchidagi o‘zgarish uning o‘quvchisida sezilishi kerak degan prinsip asos qilib olinyapti. Jizzax malaka oshirish markazidagi 60 professor-o‘qituvchi Singapur, AQSH, Germaniya kabi yetakchi mamlakatlar metodikasi asosida qayta tayyorlanadi. Maktabdagi 17 ta fanning har biri bo‘yicha alohida tayanch maktablar tashkil etiladi. Har birining 1 nafar o‘qituvchisi malaka oshirish markaziga kelib, o‘z yo‘nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. Trenerlar o‘ziga biriktirilgan hududdagi 25 yetakchi o‘qituvchini o‘qitadi.

Sirdaryoning chekka tumanida ishlasam-da, ishimdan nolimayman. Ikki yilda xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarni qo‘lga kiritdim. Birinchi toifali o‘qituvchiman. Oliy toifa olishni maqsad qilganman. Ayni paytda 8-10 million so‘m oylik olaman. Faoliyatimni yangi pedagogik texnologiyalar, metodlar bilan boyitishga urinyapman. Ayniqsa, raqamli imkoniyatlardan iloji boricha ko‘p foydalanishga harakat qilyapman. Chunki bugun sun’iy intellektning ta’lim uchun foydasi nihoyatda ko‘p. Ammo qo‘llash borasida o‘qituvchilarning aksari erinchoq, hafsalasiz. O‘quvchilarga yaratuvchanlik mohiyatini anglatish uchun yuzlab tekin sun’iy intellektdan, chatbotdan foydalanish tanlovi bor.

O‘n yil oldin maktablarda aniq fanlar bo‘yicha amaliyotni stadionda futbol o‘ynab o‘tkazib yuborardik. Ilmiy tadqiqot olib borish degan tushunchani tushunmasdik. Birgina fizika o‘qituvchimiz ruhimizda shijoat uyg‘otish uchun kuyib-pishardi. O‘shanda men undan ayni paytda bor resurslardan foydalanib ajoyib dars o‘tish mumkinligini, kutish kayfiyatidan ko‘ra quruq qo‘llar bilan bo‘lsa ham nimanidir o‘rgatish afzalligini o‘rganganman.

Hozir esa hamma narsa bor. Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida qulayliklar yaratib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Onlayn platformalar, interaktiv vositalar, virtual qo‘llanmalar tafakkurning yangi qo‘riqlarini ochmoqda. Bularni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, individual ehtiyojlarga moslashish imkonini beradi.

Ayni damda qabul qilinayotgan qarorlar, bajarilayotgan ishlar zamiridagi asl mohiyat ham shunda: inson texnologiyalarni emas, avvalo, o‘zini o‘rganishi, bugungi imkoniyatlarga tayyorlashi darkor. Ertangi kunga o‘zida ishonch uyg‘otmas ekan, boshqalarni ham ishontira olmaydi.

Agar biz maktab ta’limida ŭzgarish qilishni millatning ertangi kuniga bog‘liq jiddiĭ masala sifatida qabul qilar, o‘qituvchilar o‘z faoliyatiga kreativ yondashib, boladagi layoqatni qobiliyat darajasiga ko‘tara olar ekanmiz, farzandlar aqlli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida kamol topadi.

Aziz BAXTIYOR yozib oldi.

YANGILANISHLAR MARKAZIDA — O‘QITUVCHILAR

Ozod MAMANOV,
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Sergeli tumani ixtisoslashtirilgan maktabi maslahatchisi:



— Ta’lim dasturlari yangilandi, biroq o‘qituvchi malakasi negadir o‘sha-o‘sha. Malaka va metodika yangilanishdan orqada qoldi. Ushbu holatlar tahlilidan kelib chiqib, yaqinda maktab ta’limi yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida shu muammolarni tubdan hal qilishga qaratilgan tashabbuslar ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturini boshlash va “Garvardchilar maktabi”ni ochish bo‘yicha katta farmon imzolaganini aytdi. Ushbu muassasa Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab sifatida tashkil etiladi. Bu yil 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, xalqaro maktabda ilg‘or o‘ntalikka kiruvchi oliygohlarga maqsadli tayyorlanadi.

Bundan tashqari, Prezident va ixtisoslashgan maktablardan 208 maslahatchi umumta’lim maktablariga biriktiriladi. Milliy dastur asosida maslahatchilar maktablardan har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchini tanlab olib, AQSHning Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi OTMlariga tayyorlaydi.

Yig‘ilishda ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, pedagoglar mahoratini oshirish hamda yoshlar bandligini ta’minlash borasida aniq maqsad, reja, mablag‘ belgilandi. Bizning vazifamiz esa ushbu ishlar ijrosini ta’minlashga hissamizni qo‘shish, natijadorlikni kafolatlash uchun o‘zimizni mas’ul deb bilishdir.

ISLOHOTLAR SOTSIAL LIFT VAZIFASINI O‘TAMOQDA

Mahfuza ORTIQOVA,
“Ibrat farzandlari” loyihasi menejeri:



— Davlatimiz rahbari yoshlarning ta’limi, kelajak liderlarini tayyorlash tizimiga alohida e’tibor qaratayotir. Yoshlar ishlari agentligining qator loyihalari, jumladan, “Ibrat farzandlari” bugungi o‘g‘il-qizlar uchun xorijiy tillarni o‘rganishda yirik platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. Mana bir necha yildirki, “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida iqtidorli yoshlar uchun yozgi oromgohlar tashkil etilyapti. Oromgoh qatnashchilari xorijiy tillarni bilish darajasi hamda faolligiga ko‘ra saralab olinadi. Shu yil 5-11-may kunlari ham “Ibrat debat” yozgi oromgohi tashkil etilib, unga yurtimizning barcha hududidan 250 ga yaqin o‘g‘il-qiz jalb qilindi. Bu kabi oromgohlarda yoshlar dam olish bilan birga zamonaviy bilimlar egallashi, kelajak liderlari sifatida shakllanishi mumkin. Buning uchun sohaning eng yetuk mutaxassislari tomonidan mahorat darslari, turli bilim sinovlari, liderlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan musobaqalar o‘tkaziladi.

Videoselektor yig‘ilishida aytib o‘tilganidek, endi yozgi oromgohlarda yoshlar “Ibrat farzandlari”, “Qizlar akademiyasi”, “Mutolaa” loyihalariga qamrab olinadi. 100 ming o‘quvchi uchun maktablarda “kunduzgi oromgoh” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bundan tashqari, “Raqamli avlod” loyihasi doirasida kamida 50 ming o‘g‘il-qiz o‘qitilib, hududlarda IT va kibersport turnirlari, “Raqamli avlod qizlari” loyihasi doirasida tuman va viloyat tanlovlari o‘tkaziladi.

Qisqasi, ushbu ishlar kelgusida davlat xizmati uchun yosh kadrlarni bosqichma-bosqich tayyorlash, yoshlar orasida davlat xizmati jozibadorligini oshirish, salohiyatli yigit-qizlar uchun sotsial lift vazifasini o‘tab, xalqchil davlat xizmatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Albatta o‘qing!

Axiy, men bitdim

(“So‘z latofati” kitobidan)

Til taraqqiyoti millat tarixi bilan uyg‘un ekan. Xalq qancha qadimiy madaniyatga ega bo‘lsa, ming yillar osha so‘zlari ham o‘zgarishga yuz tutib borar ekan. Ingliz tili ham asrlar mobaynida o‘zgara-o‘zgara yozuv bilan og‘zaki nutq farqi tanib bo‘lmas holga kelgan. O‘zlari hazil bilan, biz Liverpul deb yozamiz-u Manchester deb o‘qiymiz, deyishadi. Lekin ko‘plab noqulayliklarga qaramay, tabiati moziyparastlikka moyil bo‘lgan inglizlar imloni o‘zgartirmaydilar. Tarixni asrash uchun, mumtoz adabiyotni unutmaslik uchun shunday qiladilar. Bunga tan berish kerak.



Angliya o‘zining uzoq tarixida hech qachon birovga qaram bo‘lmagan. Ko‘p zamonlar ulkan imperiyaning sohibi edi. O‘z erki o‘zida edi. Biz qaram o‘lka bo‘lganimiz uchun yozuvimizdan, demakki, tariximizdan judo qilindik. Qayta-qayta savodsizlikka mahkum bo‘ldik. Tilimizga begona bo‘lgan kirill alifbosi majburan kiritildi. To‘g‘ri, arab alifbosi ham turkiy tilga yotmagan. “Devonu lug‘otit turk”ni arab tilida, arab yozuvida bitgan Mahmud Koshg‘ariyga oson bo‘lmagan. Talay turkiy tovushlarga mos harflar topolmagan. Abdulla Qodiriy ham o‘z romanlarini arab yozuvida bitgan. Qipchoq shevasiga xos turing‘, o‘tiring‘ so‘zlaridagi asl turkiy “ng‘” tovushini ifoda qilolmay, sahifa tagida batafsil

> **YOZUVCHILAR UYUSHMASINING IJOD UYIDA BIR KEKSA YOQUT ADIBI BILAN QO‘SHNI BO‘LIB QOLDIM. JAJJI NABIRASI BILAN KELGAN EKAN. QIZALOQ HAR GAL TAOM YEB BO‘LGACH, “AXIY, MEN BITDIM”, DERDI. BITDIM DEGAN QADIMIY TURKIY SO‘ZNING BO‘LDIM, TUGATDIM MA’NOLARI BIZGA TANISH. SHUNINGDEK, TATAR, BOSHQIRD TILLARIDA OTANI ATIY, ONANI ANIY DEYISHLARI HAM AYON.**



tushuntirish bergan. Bu tovushga kirill yozuvida ham, lotin xatida ham mos belgi yo‘q.

Turkiy xalqlarning ko‘rgiligi shundaki, qadimgi turk yozuvi yo‘qolib ketgan. Mo‘g‘ulistonning Urxun, Rossiyaning Yenisey daryolari sohilidan topilgan yodgorliklar xati bir zamonlar poyonsiz kengliklarda makon tutgan xalqlarimizni birlashtirgan edi. Bamisoli xitoiy tasvirxat — iyerogliflar turli lahjalarda so‘zlashuvchi bir yarim milliardlik xalqni bog‘lab turgandek. Bizning ham ko‘hna yozuvimiz barhayot bo‘lib, taraqqiy topganda, tillarimiz bu qadar yiroqlashib ketmas, qardosh ellarimiz muloqotida uchinchi til vosita bo‘lmas edi. Bizlar yagona buyuk tilning usmonli, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, tuva, qorao‘g‘iz shevalarida so‘zlashardik. Yozi jazirama turkman cho‘llaridan to ayozi beshafqat Yoqutiyagacha poyonsiz makonda bizga tilmoch kerak bo‘lmasdi.

Bu armonni aytish bugun endi jasorat emas. Kecha bunday so‘zlar panturkizm targ‘iboti deya baholanar, aytuvchiga omonlik yo‘q edi. Dunyoni larzaga keltirgan Turk xoqonligi, qudratli Amir Temur davlati Mag‘ribu Mashriq xotirasidan o‘chib ketmagan va qondagi tahlika unut bo‘lmagan. Shuning uchun ham dunyo siyosatining jilovini tutib turganlar panevropeizm, panslavyanizmdan emas, panturkizmdan cho‘chiydilar.

Yetmishinchi yillarning boshi edi. Yozuvchilar uyushmasining ijod uyida bir keksa yoqut adibi bilan qo‘shni bo‘lib qoldim. Jajji nabirasi bilan kelgan ekan. Qizaloq har gal taom yeb bo‘lgach, “Axiy, men bitdim”, derdi. Bitdim degan qadimiy turkiy so‘zning bo‘ldim, tugatdim ma’nolari bizga tanish. Shuningdek, tatar, boshqird tillarida otani atiy, onani aniy deyishlari ham ayon. Lekin boboni axiy atalishi menga yangilik bo‘ldi. O‘sha keksa adib bilan tillarimizning o‘xshash tomonlari to‘g‘risida gaplashmoqchi edim. Lekin qulog‘i og‘ir ekan, so‘zlarimni yaxshi uqmadi. Buning ustiga u rus tilida yozar ekan. Men bilan ruscha so‘zlashdi. Adibning aytishicha, yoqut tili yo‘qolib borayotgan tillar qatorida. Yoshlar bu tilda gaplashmaydilar, o‘qimaydilar. Xalq ruslashib bo‘lgan.

Bu kichik xalqlarning katta fojiasi. Nufusi millionga yetmagan, to‘rt yuz yil Rossiya mustamlakasi bo‘lgan, mustamlaka bo‘lganda ham ulkan davlatning eng chekka, ovloq yeridan joy topgan xalqning holi boshqa ne kechishi mumkin? Tag‘in ham til saqlanib qolibdi. Chol nabirasiga ona tilini o‘rgatibdi. Arab tili ham, fors tili ham yetib bormagan, ko‘zlardan yiroq bu yurtda, kamchilik orasida bo‘lsa ham, turkiy til o‘zining ibtidoiy sofligini asrab qolibdi.

Yoqutiyadan kelgan qizaloqning, men bitdim, degan so‘zi qulog‘imda qoldi. Shu bolajonning tili bilan bir kichik xalq: “men bitdim, tugab borayotirman”, degandek edi tasavvurimda. Dunyoning ishlarini qarangki, agar chigirtkaning biror turi kamayib ketsa, tabiat muvozanati uchun o‘sha turni saqlab qolishga kirishadilar. Tabiatning qizil kitobi boru, jamiyatning qizil kitobi yo‘q ekan. Butun boshli bir til yo‘qolayotgan bo‘lsa, til egasi bo‘lgan xalq tugab borayotgan bo‘lsa, bunga birov parvo qilmas ekan. Nahotki tirik insonlar jamoasining o‘sha zararkunanda hasharotchalik qadri yo‘q bo‘lsa!

Turkiy tilda so‘zlashuvchi ikki ulug‘ xalq nomi aytilsa, bittasi o‘zbeklar bo‘ladi. Jahon sahnida o‘z o‘rnini topgan davlatmiz, taraqqiy etgan ilmu fanimiz, ma’rifatimiz bor. Manman degan tilshunoslarimiz bor. Olimlarimiz zimmasida sharafli bir vazifa ham turibdi. Bu — faqat o‘zbek tili uchun emas, umuman, turkiy tillar taraqqiyoti uchun qayg‘urmoq, ularning qismatini o‘ylamoq mas’uliyatidir. Tili yo‘qolib borayotgan kichik xalqlar katta qardoshlariga umid ko‘zini tikadilar. Tillar, ayniqsa, ildizi tutash tillar bir-birlaridan bahra olib rivoj topadilar. Qilni qirq yorgan til bilgichlarimiz eski zamondan qolgan tor kulbani tark etsalar, qardosh tillarimizni chog‘ishtirib o‘rganishga qattiqroq kirishsalar, turkiy tilda so‘zlashuvchi oz sonli xalqlarning yo‘q bo‘lib ketmasliklari uchun jon koyitsalar, deyman. Bu ishni biz qilmasak, kim qiladi? O‘zingni bil, o‘zgani qo‘y, deyish endi bizga yarashmaydi. Qardosh tillarni asrash va o‘rganish avvalo o‘zimiz uchun kerak. Tilimizning o‘zagi bo‘lgan turkiy so‘zlar tarixi, buguni va ertasini oydinroq tasavvur qilishimiz uchun, ona tilimizning imkoniyatlarini kengaytirish uchun kerak. Katta kemaga katta yo‘l, deydilar. Bor ilmiy salohiyatimiz, g‘ayratimiz, jasoratimizni kichik qardosh tillar himoyasiga bag‘ishlamasak, bo‘lmas. Bu biz uchun tarixiy mas’uliyat, kelajak oldidagi ulkan burchdir.

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri



KELAJAK ODAMINING YANGI QADRIYATLARI

Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, jamiyat, zamon va sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qiymatini anglashga intilish jarayonidan iboratligini inobatga olsak, qadriyatlar jamiyat va odam faoliyatida katta ta’sir kuchiga ega ekanini sezamiz. Qadriyat axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzi, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi, ma’naviy mezon bo‘lib to‘g‘ri yo‘lga solib turadi. Ularni barqarorlashtirish butun xalq, davlat yoki qavmlarni uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo‘lida birlashtiradi, faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi. Mana nima uchun kattagina davrni qamrab oluvchi milliy strategiyalar ishlab chiqiladi!

Qadriyatlar muayyan davr ehtiyojining mahsuli bo‘lish bilan birga uning ko‘zgusi hamdir. Ular ijtimoiy taraqqiyot jarayonida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. O‘zgarib, takomillashib boradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar qadriyatlar mazmunida o‘z ifodasini topadi.

Jamiyatda yuz berayotgan hodisalar shaxs ongida yangilanishni keltirib chiqaradi. Yangilanish esa qadriyatlarning tub mohiyati bilan bog‘liq. Agar ular sayqallanib, boyib bormasa, u tez orada eskirib, taraqqiyotga to‘siq bo‘ladigan hodisaga aylanib qoladi.

O‘tgan mingyillikning har asrida xalqimizda qanday milliy qadriyatlar shakllanmadi deysiz. Shu bilan birga, tariximiz mag‘zi puch chiqqan yuzlab g‘oya va maqsadlarga ham guvoh bo‘ldi. Sulolalar almashinuvi davriga to‘g‘ri kelgan XI asr boshini olaylik. Fan va madaniyat gullab-yashnashi, o‘ziga xos Sharq tamadduniga asos solgan somoniylar saltanatidek kuchli davlat qulash arafasida edi. Shimoldan qoraxoniylar, janubdan g‘aznaviylar somoniylar va xorazmshohlar davlatiga hujum uyushtirayotgandi. G‘aznaviylar davlati asta-sekin kuchayib bordi. Ko‘p o‘tmay, qoraxoniylar Buxoroda hokimiyatni butunlay qo‘lga oldi. Shunday qilib, kuchli somoniylar davlati batamom quladi. Xalq hammasini qaytadan boshlashiga to‘g‘ri keldi. Bor narsani yangilash bilan qaytadan boshlashning farqi katta. Bir uydan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishning o‘zida qancha tashvish bor — bir qadriyatdan boshqasiga o‘tishni tasavvur qilavering.

XIII asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib yov qo‘liga o‘tgan, XIV asr boshlarida ham mo‘g‘ullar hukmron bo‘lgan yurt Amir Temur va uning rahnamoligida qo‘lga kiritilgan ozodlik, buyuk sohibqiron barpo etgan markazlashgan va o‘ta qudratli davlat bilan putur yetgan qadriyatlarini tiklab oldi.

XV asrning ikkinchi yarmida esa jahon tafakkur olamida Alisher Navoiydek daho paydo bo‘ldi. U xalq baxti va kelajagini temuriylar saltanati ravnaqi bilan bog‘lab, chinakam yuksak qadriyat yaratdi. Shoir merosini hech ikkilanmay milliy qadriyat deb aytayotganimizga sabab shuki, bobomizning serqirra ijodi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy va hatto ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarning muayyan va mukammal tizimga solingan majmuidan iborat. O‘z davrida Navoiy aytmagan gap qolmagandi. Bu ijod namunalarida umuminsoniylik bilan milliylik shu qadar uyg‘unlashib ketganki, aynan shuning uchun asrlar o‘tgani sari u ilgari surgan g‘oyalar ahamiyati aslo kamaymaydi, aksincha, ortib boraveradi.

Taassufki, tarix sahifalarida qonli izini qoldirgan ikki betayin urush muqaddas qadriyatlarning muhtasham obidalar kabi nurashiga sababchi bo‘ldi. Kutilmagan qatag‘onlar, surgunlar, qo‘zg‘alonlarning shafqatsizlarcha bostirilishi asr odamlarini yashash emas, omon qolish ilinjida hayot kechirishga majbur qildi. O‘tmish uchungina muhim ahamiyat kasb etib qolmay, hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar shuuriga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar

> KELAJAK ODAMLARI HAR NARSADAN AVVAL HAYOTDA MUVOZANATGA INTILADI — MEHNAT BILAN KO‘NGILXUSHLIK, ISHLAB CHIQARISH BILAN ISTE’MOL, AQLIY VA JISMONIY HARAKAT, MAVHUMLIK BILAN MUAYYANLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT KATTA AHAMIYAT KASB ETADI. ULAR O‘TMISH ODAMLARIGA QARAGANDA O‘ZINI MURAKKAB TUSHUNCHALAR ORQALI TAHLIL QILADI VA TAVSIFLAYDI.

majmui — qadriyat o‘rnini juda kam resurs bilan kulrang hayotini iloji boricha boshog‘riqsiz davom ettirishning arzon istaklari, ko‘nikishlari, taslimlari egalladi.

Bu ruhiy jarohatlar insoniyatni kelajakdagi yomon kunlarga, fojialarga tayyor bo‘lishga o‘rgatdi. Istalgan vaqtda



qo‘rqinchi hodisa yuz berishi mumkinligi, kimdir qamalishi, kimdir umuman aloqasi yo‘q ishda aybdor deb topilishi, kimdir qo‘qqisdan yo‘q bo‘lib qolishi — bularning hamma-hammasi odamlarni doimiy zo‘riqishda, bosim ostida ushlab turdi. Bundan tashqari, sho‘ro zamonida odamlarning har doim mehnat bilan band bo‘lishi, charchoq tufayli farzandlariga e’tibor bera olmasligi, bolalarning o‘z holicha, urilib-surilib katta bo‘lishi kabilar himoyasizlik hissini kuchaytirdi.

Pandemiyaning bir necha oylik yoki yillik vahimasi bizni mavhumlik qo‘rquvi ichida yashashga o‘rgatib qo‘ygandi. Endi urush yillarida yashagan odamlarning holatini bir o‘ylang: bir necha yillik urush oddiy cho‘ponning ruhiyatini qay darajada zo‘riqtirgan?! Yaqin odamlaridan birini yo‘qotish, ertaga nima bo‘lishi noaniqligi qo‘rquvi odamlar ongostida yillab saqlanib turgan.

O‘zini doim ikkinchi darajaga qo‘yish, xohishlarini himoya qilish befoydaligini his qilish, holdan toygan bo‘lsa-da, boshqalarga kuchli bo‘lib ko‘rinish istagi, bir so‘mni ham tejash, qora kunga yig‘ish, qulash dahshatli bo‘lmasligi uchun baland parvoz qilmaslik, istalgan muammo qarshisida yolg‘iz o‘ziga, o‘zining kuchiga suyanish, yashalmagan hayotining yukini farzandlarga ortish, ularning ehtiyojlari va istaklari, kuchi namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi xususiyatlar, fe’l-atvorlar urush va urushdan keyingi avlodning ruhiy og‘riqlari, qadriyat atalmish kemtigini vahima bilan to‘ldirgan quruq, sovuq odatlar, amallardir. Natijada ular ham o‘z salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga qiynaldi. Boisi, omon qolish rejimi ijodkorlikka o‘rin qoldirmadi. Millat uchun qilinadigan ishlar, shonli maqsadlar esa, shubhasiz, qo‘rquv ta’sirida amalga oshmaydi.

Mustaqillikka erishilganidan so‘ng jamiyat taraqqiyotidagi burilish, islohotlar rivoji qadriyatlarning o‘zgarishiga turtki bo‘ldi. Oxirgi sakkiz yilda qadriyatlarning yangilanish sur’ati oshdi.

Bugun inson huquqlari va erkinligining to‘la-to‘kis ta’minlanishi nazarda tutilayotgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, qonunlar, Prezident qarorlari va farmonlarini amaliyotga tatbiq etish va bajarish samarasini oshirish, bu boradagi vazifalarga yanada mas’uliyatli yondashish yangi qadriyatlar tizimini takomillashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy sohadagi asoslari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz aholisi ko‘p millatliligi va asosiy tarkibini yosh avlod tashkil etishi, ularda umuminsoniy, milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash va shaxs qadrini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olib, o‘zaro hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlovchi qadriyatlarga alohida e’tibor berish dolzarblashib bormoqda.

Ushbu qadriyat tizimlarining moddiy asosi iqtisodiy jarayonlar, ularda ro‘y berayotgan qalqishlar bilan bog‘liqligini, albatta, inkor etmaymiz. Iqtisodiyot, mehnat va ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlarni tadqiq qilish iqtisodiy islohotlarning qaysi qadriyatlarga qaratilgani, ularning istiqboli qanday qadriyatlarni barqarorlashtirishi va kelajakda qay tarzdagi qadriyatlar tizimini vujudga keltirishi mumkinligini o‘rganish imkonini beradi.

Iqtisodiy islohotlar orqali qadriyatlar ta’siri oshadi. Natijada kelajak odami yangi mezonlarga moslashadi. O‘z ehtiyoj, qadriyat va intilishlarini zamon talablariga moslab o‘zgartiradi. Buning uchun muayyan vaqt ajratiladi.

Yangi qadriyatlarni shakllantirish vositasi bo‘lgan bozor munosabatlari hozirning o‘zidayoq iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning zamonaviy usullarini samarali qo‘llash imkonini berdi. Ishlab chiqarishda faollik, ijodiy yondashuv va ochiq raqobat paydo bo‘lishiga olib keldi. Tashabbuskorlikni rivojlantirdi va boqimandalik kayfiyatini keskin kamaytirib, shaxsning iqtisodiy sohadagi imkoniyatlarini kengaytirdi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchilarning narx-navo belgilashdagi monopoliyasini butkul yo‘qotish, ishlab chiqarishni iste’molchilar talabiga moslab o‘zgartirishga urinish jarayonlarga sun’iy idrok texnologiyalarini qo‘llashni tezlashtirdi. Mehnat bilan mashg‘ul kishilarni bu yangiliklar talabiga monand o‘z iqtidori, ko‘nikmalarini takomillashtirishga undadi.

Bugun iloji bo‘lsa, barchani iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, o‘zgarishlarning istiqboliga ko‘proq ishontirish, odamlarning ruhiyatida, qarashlarida, iqtisodiy tafakkurida tub burilish yasash yangi qadriyatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Shunday ekan, biz shitob bilan kirib borayotgan yangi dunyoga nisbatan xavotirimiz ancha kamayadi, yangi to‘lqin tamadduniga ishonch uyg‘otadi. Ushbu tamaddunga qo‘shilarkanmiz, shunchaki bir quvvat tizimidan ikkinchisiga yoki bir texnologik asosdan boshqasiga o‘tmayotganimizni anglaymiz. Biz ayni chog‘da ichki olamimizga ham inqilobiy ruh olib kirayotganimizni his qilamiz.

Ertangi shaxslar bir-biridan, shubhasiz, bugungidan ko‘ra ko‘proq farq qiladi. Ularning ko‘pi tezroq balog‘atga yetadi, zimmasiga mas’uliyatni ertaroq oladi, tez o‘zgaruvchi muhitga tuzukroq moslashadi va o‘ziga xos jihatlarini ko‘proq namoyon qiladi. Ular pulga muhtoj bo‘ladi. O‘sha pulni ishlab topadi ham, biroq faqat pul uchun mehnat qilmaydi.

Kelajak odamlari har narsadan avval hayotda muvozanatga intiladi — mehnat bilan ko‘ngilxushlik, ishlab chiqarish bilan iste’mol, aqliy va jismoniy harakat, mavhumlik bilan muayyanlik o‘rtasidagi muvozanat katta ahamiyat kasb etadi. Ular o‘tmish odamlariga qaraganda o‘zini murakkab tushunchalar orqali tahlil qiladi va tavsiflaydi. Nihoyat insoniy deb atashga munosib tamaddunni yaratadi.

Biroq eng so‘nggi bir zaruratni qabul qilmas ekanmiz, bunday munosib tamaddunga eson-omon o‘tib olishda qiynalamiz. Bu zarurat dunyoqarash, saviyaning butkul o‘zgarishi va sun’iy intellekt bilan uyg‘un yangi qadriyatlarning rivoj topishidir. Chunki kelajak qadriyati kelajak odamiga mos kelishi kerak.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
36390 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 02:10 Topshirildi — 02:30